

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROYEVA NAFISA NIZOMIDDINOVNA

FATIK MULOQOTNING IJTIMOYIY-MADANIY
VA KOGNOPRAGMATIK TADQIQI
(salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish misolida)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science degree (DSc)

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna

Fatik muloqotning ijtimoiy-madaniy va kognopragmatik tadqiqi (salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish misolida).....5

Хамроева Нафиса Низомиддиновна

Фатический дискурс: социально-культурное и когнопрагматическое исследование (на примере приветствий, выражения благодарности и прощаний).....33

Khamroyeva Nafisa Nizomiddinovna

Phatic Communication: Socio-Cultural and Cognopragmatic Analysis (Based on Greetings, Expressions of Gratitude, and Farewells)65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....69

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROYEVA NAFISA NIZOMIDDINOVNA

FATIK MULOQOTNING IJTIMOIIY-MADANIY
VA KOGNOPRAGMATIK TADQIQI
(salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish misolida)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.2.DSc/Fil983 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Toirova Guli Ibragimovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar

Muxamedova Saodat Xudoyberdiyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Xursanov Nurislom Iskandarovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Karimov Suyun Amirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 6-may soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, ye-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (862-raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 18-aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil 17-apreldagi 9-raqamli reestr bayonnomasi).



B.E. Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raiisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'. Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raiisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi o‘n yilliklarda nutqiy faoliyatning har qanday shaklini, til hodisalarini o‘rganishga kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida e‘tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv bir tomondan, kommunikativ vaziyatning xususiyatlarini, so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy-psixologik munosabatlarini hisobga olish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, nutqiy harakat bayonotlarining ma‘nosi va vazifalarini aniqlashtiradi. Tilshunoslarning shaxslararo yozma verbal muloqot muammolariga tobora ortib borayotgan qiziqishi til egalari, ularning lingvokulturologik va kognopragmativ xususiyatlarini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda.

Dunyo tilshunosligida kognopragmalingvistikaning tilshunoslik turkum fanlar orasidagi o‘rni, nutqiy muloqot ishtirokchilarining pozitsiyasiga, uning kommunikativ niyatlariga, muloqot paytida qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish yo‘llariga, ma‘lum kommunikativ bosqichlarga bo‘lgan munosabatga har ikki tomondan qo‘llaniladigan strategiya va taktikalar bilan murakkab aloqadorliklarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish harakati kuchaydi. Natijada, fatika va uning ko‘rinishlariga ham urg‘u berish zarurati paydo bo‘ldi. Yozma fatik muloqotning bir turi bo‘lgan salomlashish, minnatdorchilik, tabriklash, xayrlashish – nutq odobining alohida kommunikativ darajasidir. Ushbu muammolarni chuqur o‘rganish zarurati til tadqiqotlari yo‘nalishlarining antroposentrikligi, fatik muloqot muammolariga nisbatan yangi kompleks yondashuvlar qo‘llanilishi shartligi bilan izohlanadi.

Mustaqillik yillarida tilshunoslik markazida belgilangan antroposentrik yondashuv yangi tadqiqot fanlarining – kognolingvistika, pragmalingvistika, psixolingvistika shu jumladan, yozma fatik muloqot nazariyasi kabilarning shakllanishiga imkon yaratdi. Bu borada “...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”¹ tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borish va turli amaliy tajribalar o‘tkazishni talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, tilni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish, til masalalarini uning sohiblari dunyoqarashi, tafakkuri va olamni lisoniy bilish darajasidan kelib chiqib tadqiq qilish fanda katta yutuqlarni qo‘lga kiritishni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Манба: [www.http://prezident.uz/uz/lists/view/137](http://prezident.uz/uz/lists/view/137)

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion ish muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Fatik muloqotning nazariy va amaliy jihatlarini kognopragmatik, lingvokulturologik va sotsiopragmatik yondashuvlar asosida tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida faol olib borilmoqda. Jumladan, Cambridge University, University of Oxford, London Metropolitan University (Buyuk Britaniya), Toronto University (Kanada), M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya), Tatariston Kazan federal universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston) kabi nufuzli ilmiy markazlarda faol olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida fatik muloqot hodisasi, xususan, salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashish kabi nutq aktlarini ijtimoiy-madaniy va kognopragmatik nuqtayi nazardan o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar samarali natijalar bermoqda. Bu tadqiqotlar fatik muloqotning madaniyatlararo tafovutlari, sotsiopragmatik funksiyalari hamda kognitiv asoslarini aniqlashga xizmat qilmoqda. McGill universitetining "Til va Ko'p tillilik" laboratoriyasi (Language & Multilingualism Lab)da olib borilgan tadqiqotlar fatik muloqot aktlarining ko'p tilli muhitdagi shakllari va madaniy-diskursiv xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lsa, Berlin universitetining Romanistik filologiya instituti (Institut für Romanische Philologie)dagi izlanishlarda roman tillarida bu turdagi muloqot aktlarining madaniy funksiyalari o'rganilgan. Bundan tashqari, MDH davlatlari til manzarasida ham salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashish kabi fatik nutq aktlarining sotsiopragmatik o'rni va milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, bu nutqiy janrlar orqali har bir millatga xos psixolingvistik stereotiplar, etnomadaniy qadriyatlar, etik normalar va lingvokulturologik kompetensiyalar yoritilgan.

Jahon tilshunosligida fatik muloqot vositalarining lingvistik, kognitiv, semiotik va pragmatik jihatlarini aniqlash dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa muloqotning madaniyatlararo xususiyatlarini chuqurroq anglash, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish, til o'qitish jarayonida etik janrlarga asoslangan til ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, til madaniyati doirasida universal yondashuvlar ishlab chiqish imkonini bermoqda. Jahon tilshunosligida shakllanayotgan fatik muloqotni o'rganish yo'nalishlari

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.dissercat.com, www.colostate.edu, www.usyd.edu.au, www.berkeley.edu, www.academia.edu, www.udsu.ru, www.bsu.ru, www.philol.msu.ru, www.myfilology.ru, www.libguides.usc.edu, www.diva-portal.org, www.cam.ac.uk, uspu.ru/, www.herzen.spb.ru, <https://linguanet.ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi

orasida fatik muloqot birliklarining diskursdagi nutq strategiyalari va ijtimoiy statusga ta'siri, salomlashish, minnatdorchilik hamda xayrlashish aktlarining ijtimoiy-madaniy va sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, mazkur nutq aktlarining kognitiv-pragmatik tipologiyasini ishlab chiqish kabi tadqiqotlardagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida kommunikativ-pragmatik yondashuv tahliliga oid salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirildi. S.B.Skovorodina, A.B. Imas, H.A. Kolshina, D.F. Komorova, T.P. Tretyakova, M.V. Utkina kabi olimlarning tadqiqotlarida dialogik nutqning kommunikativ-pragmatik jihati, nutqiy janrlar masalasi tahlil etilgan. Shuningdek, Kurosh Saberi, E.Ventola kabi olimlar salomlashish nutqiy aktini o'rganan bo'lsalar, Y.N. Afonkin va I.S. Bajenovalar muloqotni yakunlash bosqichining pragmatik xususiyatlarini o'rganan. V.I. Karasik, F.Kulmas, S.S. Krayeva kabi olimlar esa minnatdorchilik nutqiy janrini tadqiq etganlar³.

Rus tilshunosligida fatik muloqot sohasidagi tadqiqotlarni T.G. Vinokur, V.V. Dementev, Y.V. Klyuev, V.Y. Fedotovalarning ishlarida kuzatish mumkin⁴.

O'zbek tilshunosligida nutqiy muloqot, diskurs va uning ko'rinishlari, matnning pragmatik xususiyatlari Sh.S.Safarov, S.M.Mo'minov, Sh.M.Iskandarova, M.X. Hakimov, D.B. O'rinboyeva, S.U. Boymirzayeva, G.I. Toirova, D.M. Hasanova⁵ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida salomlashish,

³ Сквородина С.В. Прагматика реактивных речевых актов в немецком диалогическом дискурсе (концепты “Благодарность” и “Извинение”). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. СПб., 2004. – С. 22; Имас А.В. Выражение благодарности в немецком языке (на материале литературных и лексикографических источников с XVII по XX вв.). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. М., 2001. – С. 11; Колшина Н.А. Коммуникативно-прагматический аспект английской диалогической речи. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Киев, 1984. – С. 43; Коморова Д.Ф. Прагмалингвистические особенности пожелания в немецком и русском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Томск, 2005. – С. 34.; Третьякова Т.П. Функциональная семантика и проблема речевого стереотипа. Автореф. дисс.... докт. филол. наук СПб., 1998. – С. 49; Уткина М.В. Семантика и функционирование единиц речевого этикета тематической группы “пожелание”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. СПб., 2002. – С. 52; Ventola E. The structure of casual conversation in English / E. Ventola // Journal of Pragmatics, 1972. – № 3. – P. 267-298; Kourosh Saberi. Routine Politeness Formulae in Persian: A Socio-Lexical Analysis of Greetings, Leavetaking, Apologizing, Thanking and Requesting/ Kourosh Saberi // University of Canterbury. – 2012. – 297pp.; Афонькин Ю.Н. Разговорные формулы немецкого языка. – М.: Просвещение, 1983. – 143 с.; Баженова И.С. Культура невербального общения на уроке немецкого языка. 1996. – № 6. – С.10-15; Карасик В.И. Языковая Матрица культуры / В.И. Карасик // – М.: Гнозис, 2013. – 320 с; Coulmas F. Poison to your soul: Thanks and apologies contrastively viewed. In F. Coulmas (Ed.). Conversational routine: Exploration in standardised communication situations and prepatterned speech / F. Coulmas // The Hague: Mouton de Gruyter, 1981. – P. 69-91; Краева С.С. Лингвопрагматические особенности речевого жанра благодарность: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2015. – С. 43.

⁴ Винокур Т.Г. Информативная и фатическая речь как обнаружение разных коммуникативных намерений говорящего и слушающего // Русский язык в его функционировании. Коммуникативно-прагматический аспект. М.: Наука, 1993. – С.5–29.; Дементьев В. В. Фатические речевые жанры // Вопросы ... - 1 (rudocs.exdat.com/docs/index-292452....); Клюев Е.В. Фатическая функции языка и проблемы референции. 2004. – С.22-28. URL: <http://www.kluev.com/?p=5>; В.Ю.Федотова. Функционально-прагматическая характеристика фатических стратегий французского языка. Автор. диссер... канд. филол. н. – Пятигорск. 2004. – С.11–16 (dissercat.com/content/funktsion...).

⁵ Сафаров Ш. Система речевого общения. Универсальное и этноспецифическое. – Самарканд: Сам.отд. из-ва им. Гафура Гуляма, 1991. – 170 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 20 б.; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Самарканд, 1993. – Б. 22; Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – Б.168; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 283 б.; Муҳамедова С. Когнитив лингвистика: вужудга келиши, асосий тушунчалари ва

xayrlashish va minnatdorchilik kabi fatik nutq aktlari qisman ko‘rib o‘tilgan. Biroq fatik muloqotning muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni davom ettirish yoki saqlab qolish (minnatdorchilik) hamda muloqotni yakunlash (xayrlashish) kabi ko‘rinishlarining lingvokulturologik va kognopragmatik xususiyatlari monografik tarzda, mustaqil ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida maxsus o‘rganilmagan.

Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida nomlari sanalgan jahon tilshunoslarining tadqiqotlari chuqur o‘rganildi, ularning qarashlariga munosabat bildirildi va tadqiqotda o‘zbek tilida fatik muloqot: muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik), muloqotni yakunlash (xayrlashish) kabi ko‘rinishlarining lingvokulturologik va kognopragmativ xususiyatlari monografik tarzda tekshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2023-2026-yy.) mo‘ljallangan “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek fatik muloqotida salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashishning xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan hamda shaxslararo munosabatlar jarayonida amalga oshiriladigan fatik nutq turi sifatida muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik) va muloqotni yakunlash (xayrlashish) hodisalariga ilmiy ta’rif berish;

fatik muloqot jarayonida salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashish nutqiy aktlarining ijtimoiy, madaniy hamda kommunikativ funksiyalarini aniqlash, ularning struktura-semantik turlarini belgilash, shuningdek mazkur birliklarni tizimli mezonlar asosida tasniflash va guruhlash;

muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik) hamda muloqotni yakunlash (xayrlashish) hodisalarini o‘rganishda pragmalingvistik va lingvokulturologik yondashuvlarning ilmiy asoslarini izohlash;

muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik) va muloqotni yakunlash (xayrlashish) birliklarining kommunikativ jarayondagi o‘rni hamda xususiyatlarini kognopragmatik yondashuv asosida dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek nutqiy muloqotidagi salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish kabi nutqiy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini nutqiy muloqot turi sifatida salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashishning sotsiolingvistik, lingvokulturologik va kognopragmativ xususiyatlari tashkil etadi.

йўналишлари // “Систем-структур тилшунослик муаммолари” мавзусидаги республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Самарканд, 2010. – Б. 112–117; Ўринбоева Д.Б. Ўзбек фольклори матнларининг лингвостатистик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2010. – 144 б.; Боймирзаева С.У. Матн мазмунида темпораллик семантикаси. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2009. – 132 б.; Тоирова Г. Фатика ва фатик мулоқот турлари // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2016. – № 2. – Б. 291–295; Hasanova D.M. Fatik kommunikatsiya va uning o‘zbek muloqot xulqida tutgan o‘rni: Filol. fanlari nomz. dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2025. – B. 24.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ratsional-tipologik, qiyosiy-chog‘ishtirma, substansial, interpretativ, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek fatik nutqida muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni davom ettirish (minnatdorchilik) va muloqotni yakunlash (xayrlashish) kabi nutq aktlari lingvokulturologik hamda kognopragmatik yondashuvlar asosida turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda kommunikativ birlik sifatida ilmiy jihatdan asoslangan;

salomlashish formulalarining pragmatik maqsadga ko‘ra qo‘shimcha semantik yuklamaga ega bo‘lmagan sodda shakllari hamda minnatdorchilik va tilak ma’nolarini o‘z ichiga olgan murakkab shakllari muloqot vaziyatlari bilan bog‘liq holda aniqlangan;

salomlashish nutqiy etiket formulalarining tarkibiy-semantik komponentlari, ularning ma’no differensial xususiyatlari va kommunikativ variantlari lingvokulturologik model asosida, madaniy konnotatsiyalar va nutqiy kontekstlar bilan asoslangan;

epistoloyar muloqotda salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashish kabi fatik nutq aktlarining yozma (xat, maktub, ariza, tabriknoma) hamda elektron (elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjer yozishmalari) dialog namunalari an’anaviy nutq muhitida marosimiy, rasmiy va kundalik vaziyatlarda, zamonaviy muloqotda esa soddalashtirilgan, tezkor hamda ko‘pincha qisqartirilgan yoki multimodal (emoji, stiker, qisqa formulalar) shakllarda qo‘llanishi misollar asosida dalillangan;

“minnatdorchilik” tematik guruhiga kiruvchi konnotativ semantikasi cheklangan “rahmat”, “katta rahmat”, “tashakkur” kabi sodda formulalar va tilak hamda duo elementlari bilan uyg‘unlashgan “rahmat, Alloh rozi bo‘lsin”, “katta rahmat, umringiz uzoq bo‘lsin” birliklari kognopragmatik yondashuv asosida ularning madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq holda ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

qaytar epistoloyar muloqotda dialog turlari: informativ dialog (savol-javob), preskriptiv dialog (iltimos), apellyativ (tanbeh, ta’na, tahdid, shikoyat), fatik (suhbat), etiket (salomlashish, xayrlashish, kechirim, minnatdorchilik, iltifot, taklif), baholovchi (maqtov, ma’qullash, ta’na, tanbeh, ayblov va hokazo) kabi qarashlar umumlashtirilib, lingvistik tabiati yoritilgan;

nutqiy janr – o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning nutq kompetensiyasiga xos bo‘lgan gapirish va yozishning namunasi (modeli) sifatida nazariy jihatlari asoslangan;

o‘zbek fatik nutqida muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik), muloqotni yakunlash (xayrlashish) kabilarda adresantning illokutiv nutqiy akti, ikkinchisi esa qabul qilingan xabarga perlokutiv javob ekanligi misollar orqali asoslandi;

salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish kabilar pragmalingvistik va lingvokulturologik yondashuvlar asosida faktik materiallar orqali dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar ratsional-tipologik, qiyosiy-chog‘ishtirma, substansial, interpretativ,

sotsiolingvistik, lingvokulturologik, diskursiv tahlil vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fatik muloqotning ijtimoiy-madaniy va kogno-pragmatik xususiyatlarini ochib berish, salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashish kabi muloqot shakllari orqali shaxslararo aloqaning mustahkamlanishini izohlash, til birliklarining muloqotdagi vazifasini aniqlash, ularning ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishini tadqiq etish, nutqning ijtimoiy funksiyasini psixolingvistik asosda yoritish, shuningdek, lingvokulturologik va kognitiv jihatdan yoritish imkoniyatidan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek tilidagi fatik nutq aktlari bo'yicha yaratiladigan maxsus kurslar, seminar mashg'ulotlari va metodik qo'llanmalar uchun manba bo'lib xizmat qilishi, "Lingvokulturologiya", "Pragmalingvistika", "Psixolingvistika" va "Kognitiv lingvistika" kabi fanlaridan mashg'ulotlar olib borishda hamda o'quv qo'llanma, darslik, majmualar yaratishda, lug'at-ma'lumotnomalar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fatik muloqotning ijtimoiy-madaniy va kogno-pragmatik tadqiqini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'zbek fatik nutqda muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik), muloqotni yakunlash (xayrlashish) reprezentatsiya sifatida ochib berilishiga doir ilmiy xulosalardan 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 25-apreldagi 01/4-1645-son ma'lumotnomasi). Natijada salomlashish nutqiy etiket formulalarining pragmatik maqsadiga ko'ra qo'shimcha ma'noga ega bo'lmagan salomlashish hamda tilak va minnatdorchilik semalarini o'z ichiga olgan salomlashish turlari aniqlanishiga oid ilmiy xulosalarga erishilgan;

lingvokulturologik yondashuvlar asosida salomlashish nutqiy etiket formulalarining tarkibiy-semantik komponentlari, "minnatdorchilik" tematik guruhining tarkibidagi qo'shimcha konnotativ ma'nolarni o'z ichiga olmaydigan minnatdorchilikni ifodalovchi formulalar asosidagi ilmiy-nazariy xulosalardan 2020-2021-yillarda bajarilgan A-OT-2021-2-raqamli "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 24-iyundagi 4040-son ma'lumotnomasi). Natijada tibbiy diskurs sharoitida muloqotga kirishishning kognitiv-semantik asoslarini aniqlash, salomlashish va ko'rishish kabi nutqiy odatlarning ijtimoiy-madaniy hamda kommunikativ funksiyalarini o'zbek tilida ifodalanish xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, shuningdek, kasbiy muloqot madaniyatining shakllanishiga oid nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqilgan;

"minnatdorchilik" tematik guruhiga oid konnotativ semantikaga ega bo'lmagan sodda formulalar bilan bir qatorda, tilak va duo unsurlari bilan uyg'unlashgan muloqot birliklarining kogno-pragmatik tahlillaridan 2021-2023-

yilda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-iyuldagi 01/4-3021-son ma’lumotnomasi). Natijada minnatdorchilik ifodalarining funksional-ilg‘ovchan xususiyatlari va ularning madaniy-kommunikativ kontekstdagi roli aniqlanib, mazkur yo‘nalishga oid yangi ilmiy dalillar bilan boyitilgan;

fatik muloqotning (salomlashish, minnatdorchilik, xayrlashish) ijtimoiy, madaniy va kognopragmatik xususiyatlari, nutqdagi kommunikativ jarayonlarning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatiga asoslangan nazariy va amaliy xulosalardan 2024–2025-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Buxoro” viloyati teleradiokanalida efirga uzatilgan “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” hamda “Sakkizinchi mo‘jiza” teleeshittirishlari ssenariylarini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 28-apreldagi 01-09-85-son ma’lumotnomasi). Natijada kommunikativ birliklarning ijtimoiy-madaniy funksiyalari va ularning mental-madaniy konnotatsiyasi ochib berilgan;

salomlashish, xayrlashish, minnatdorlik bildirish manzaralari aks etgan lavhalar tahliliga oid kuzatishlardan, o‘zbek tilshunosligida ilk marotaba o‘zbek fatik nutqda muloqotga kirishish (salomlashish), muloqotni saqlab qolish (minnatdorchilik), muloqotni yakunlash (xayrlashish) reprezentatsiya sifatida ochib berilishiga oid qarashlardan adabiy-ma’rifiy tadbirlar ssenariylari va uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limining 2025-yil 28-apreldagi 13-sonli ma’lumotnomasi). Natijada kasbiy muloqotda fatik birliklarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari va ularning zamonaviy til muhitidagi ifoda usullari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 26 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 4 ta rasm, 7 ta jadvaldan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 220 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Nutqiy janr - nutqiy muloqotning ajralmas birligi sifatida**” deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Birinchi fasl “Nutqiy janr (NJ) va janriy juftlik haqida tushuncha” deb nomlangan bo‘lib, unda nutqiy janr muayyan kommunikativ maqsad va ijtimoiy matnda shakllanadigan til faoliyatining maxsus shakli ekanligi, ikki tomon, ya’ni adresant – maktub yozuvchi, adresat – maktubni qabul qiluvchi shaxs o‘rtasida amalga oshiriladigan yozma yoki og‘zaki shakl – qaytar epistolyar muloqot vazifalari tahlil etilgan.

Nutqiy janrlar – bu muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi til birliklaridir. M.M. Baxtin nutqiy janrlar konsepsiyasini adabiyotshunoslik doirasidan tilshunoslikka tatbiq etib, uni ilmiy asoslab bergan olimdir. Uning “Dialogik tasavvur” hamda “Dostoyevskiy poetikasi muammolari” asarlari janrlar nazariyasining dinamik, dialogik va ijtimoiy matn bilan o‘zaro bog‘liqlikdagi xususiyatlarini ochib beradi⁶.

“Nutqiy janr” tushunchasiga olimlar turlicha yondashib unga ta’rif berishadi. Jumladan, NJ – bu ona tilida so‘zlashuvchilarning nutq kompetensiyasiga xos bo‘lgan gapirish va yozishning namunasi (modeli) dir⁷.

Har bir nutqiy janr o‘ziga xos qurilish modeliga ega bo‘lib, u so‘zlashuvdagi stereotipik vaziyatlarni aks ettiruvchi semantik xotiradagi bilim qoliplari asosida shakllanadi⁸. Demak, NJ model, namuna, barqaror tur, barqaror shakl sifatida tushuniladi. Y.I. Golanova janrning quyidagi xususiyatlarini aniqlaydi: aniq maqsadning mavjudligi (illokutiv kuch), aniq adresat, adresatga murojaat, adresantning muloqot o‘rnatishdagi roli (murojaat, savollar, modal so‘zlar va boshqalar)⁹.

Nutqiy janrni (NJ) aniqlashda asosiy mezon – uning kommunikativ maqsadidir, chunki aynan maqsad NJ turini belgilashga xizmat qiladi. T.V. Shmelova o‘z tadqiqotlarida anketani NJ sifatida ko‘rib chiqib, unga xos yetti tarkibiy qismlarni ajratadi. Bular: 1) maqsad – ma’lumot yig‘ish; 2) so‘zlovchi konsepsiyasi; 3) adresat konsepsiyasi; 4) savollar orqali beriladigan mazmun; 5) o‘tmishdagi faktlar ta’siri; 6) natijalarning kelajakdagi ahamiyati; 7) til vositalari va tuzilishidir. Ushbu komponentlar anketaning kommunikativ rolini belgilaydi.

F. Xasanovaga ko‘ra, nutqiy janr – bu muloqot jarayonida shakllanuvchi, aniq maqsad, uslub va kompozitsiyaga ega, kogerentlik asosida tashkil topgan va tilshunoslikning barcha sohalarida o‘rganilishi mumkin bo‘lgan barqaror nutqiy birlikdir¹⁰. Nutqiy janrlar turli sohalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, inson faoliyati asosida rivojlanadi; adabiyot, jurnalistika, din, media va internet kabi yo‘nalishlarda esa ular mazkur sohalarga xos subjanrlarni yuzaga keltirib, nutqiy jarayonlarning ijtimoiy-madaniy mazmunini ochib beradi¹¹.

⁶Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва, 1986. – С. 428-472.

⁷ Ўша асар. – Б. 160.

⁸ Маркова Л.Ф. Когнитивная идентификация речевого жанра. Автореф.дис....канд.филол.наук. – Волгоград, 2003. – С. 36-38.

⁹ Голанова Е.И. Устная публичная речь. Жанр публичной лекции // Русский язык в его функционировании. Коммуникативно- прагматический аспект. – Москва: Наука, 1993.С. 137-157.

¹⁰ Xasanova F. Tilshunoslikda nutqiy janr modelining lingvistik xususiyatlari//Ilm sarchashmalari. – Urganch: 2018, № 2. 47-50 b.

¹¹ Saminjonov M.Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi // FarDU ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2023. № 1. 450-454 b.

R.Xalilovning fikricha “Nutq janrlari murakkab (ikkilamchi) va sodda (asosiy) ga bo‘linadi. Murakkab janrlarga yozma (asosan) badiiy asarlar, ilmiy maqolalar va shu kabilar, soddasiga esa – bevosita og‘zaki muloqot kiradi”¹².

Janr tushunchasi XXI asrda mustaqil lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanib, oddiy tushunchadan ilmiy nazariya darajasiga ko‘tarildi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Dialogik nutqning qaytar epistolyar muloqot va janriy juftliklar tavsifi*” deb nomlanadi. Epistolyar matnlar so‘nggi yillarda lingvistik tadqiqotlarda turli jihatlardan o‘rganilgan: lingvostilistik¹³, sotsiolingvistik¹⁴, lingvopragmatik¹⁵, janr tipologiyasi nuqtai nazaridan¹⁶ va hkz. Epistolyar matnning turli xil ko‘rinishlari, shu jumladan, badiiy maktublar¹⁷ hamda xususiy, norasmiy maktublar¹⁸ tadqiq etilgan. Do‘stona maktublar shaxsiy, norasmiy muloqotning fenomeni sifatida alohida tadqiq etilib, uning sintaktik va kompozitsion xususiyatlari hamda maktubning dialogik tuzilishiga oid o‘ziga xosliklar ko‘rib chiqilgan¹⁹.

Epistolyar muloqotda illokutiv-responsiv juftliklar muhim bo‘lib, ular maktubdagi so‘rov va unga javobdan iborat bo‘lgan korrelyativ qismlarni tashkil etadi. Bunday juftliklar maktublarda dialogning asosiy strukturasi belgilaydi. Har bir maktubda muayyan intensiya mavjud bo‘lib, u matnning maqsadini belgilaydi va adresatning javobi bu intensiyani to‘ldirib, muloqotni samarali davom ettirishga xizmat qiladi. Qaytar epistolyar muloqot – bu yozma yoki og‘zaki shaklda olib boriladigan ikki tomonlama muloqot bo‘lib, unda adresant va adresat o‘zaro fikr, hissiyot va munosabatlarni maktublar orqali ifodalaydi.

Janriy juftliklar, aniq bir sohadagi dialoglar va ularning hamkorlik qilib, yakka holda o‘ziga xos til va ma‘noda ishlatiladigan konstruksiyalarning aniqlangan kategoriyasini tashkil etadi. Janriy juftliklar – bu ijtimoiy va

¹² Халилова Р. Виртуал мулоқотнинг асосий жанрлари ва ўзига хос жиҳатлари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2023. – № 11. -Б.78-81.

¹³ Виноградова Е.М. Эпистолярные речевые жанры: прагматика и семантика. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Москва., 1991; Баланчик Н.С. Фразеология эпистолярного наследия А.П. Чехова. Автореф.дис.... канд.филол.наук. – Москва., 1992. – С.6-8.

¹⁴ Данкер З.М. Функционально-семантическая организация текста частного письма. Автореф. дис... канд. филол. наук. СПб., 1992. – С.5–29.

¹⁵ Ковалева Н.А. Русское частное письмо XIX века. Коммуникация. Жанр. Речевая структура. Автореф. дис... докт. филол. наук. – Москва, 2002. – С.5-8; Курьянова А.В. Коммуникативные аспекты слова в эпистолярном дискурсе М.И. Цветаевой. Автореф.дис....канд.филол.наук. – Томск, 2001. – С.33-35.

¹⁶ Акишина А.А., Формановская Н.И. Этикет русского письма. – Москва, Русский язык, 1981. – С.23-28.; Гулякова И.Г. Письмо как жанр: типовое и индивидуальное // Мат-лы XXVIII межвуз.науч.-метод.конф.преп.и асп. Вып. 19.4.2. 15-22 марта 1999.СПб.: Изд-во СПбГУ, 1999.С. 8-9; Белунова Н.И. Дружеские письма творческой интеллигенции конца XIX-начала XXв. Жанр и текст письма. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2000. – С. 156.

¹⁷Виноградова Е.М. Эпистолярные речевые жанры: прагматика и семантика. Автореф. дис... канд.филол.наук. – Москва, 1991– С.56; КовалеваН.А. Русское частное письмо XIX века. Коммуникация.Жанр .Речевая структура. Автореф.дис.... докт. филол.наук. – Москва, 2002. – С. 16.


¹⁸ Данкер З.М. Функционально-семантическая организация текста частного письма. Автореф. дис....канд. филол.наук. СПб., 1992. – С.6-9.; Ковалева Н.А, Авторское фразообразование и коммуникативная стратегия текста в письмах А.П. Чехова. – Астрахань: Изд-во АГПУ, 2000.– С. 23.

¹⁹ Ковалева Н.А. Русское частное письмо XIX века. Коммуникация. Жанр. Речевая структура. Автореф. дис... докт. филол. наук. – Москва, 2002. – С.21; Белунова Н.И. Дружеские письма творческой интеллигенции конца XIX-начала XX в. Жанр и текст письма. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2000. – С.19; Катаржина С.Л. Этикетные формулы в письмах к друзьям русской творческой интеллигенции нач. XXв. Автореф. дис.... канд. филол.наук. – Ижевск, 2001. – С. 24.

kommunikativ aloqalarda yuzaga keladigan, bir-biriga bog‘langan yozishmalar bo‘lib, ular asosiy va javob intensionalarni ifodalaydi (masalan: savol–javob, shikoyat–tasalli).

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Nutqiy muloqotda janrlarning dinamikasi va funksiyasi*” deb nomlanadi. Nutqiy janrlarni tadqiq etishda shakllangan ilmiy yo‘nalishlarning umumiy jihatlari, avvalo, nutqiy janrni aniqlashdagi asosiy elementlar sifatida kommunikativ maqsad, janr yaxlitligi, butunligi va tugalligini nazarda tutadigan ilmiy qarashlar mavjudligi bilan belgilanadi.

Janr tushunchasi o‘z tarixi davomida turli ilm sohalarida turlicha talqin etib kelingan. Uning mazmunan takomillashuvi asosan ikki bosqichda namoyon bo‘ladi (Qarang: 1.1.rasm.):



1.1-rasm. Janr tushunchasining semantik rivojlanish bosqichlari

Janr tushunchasining tarixiy va zamonaviy talqinlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu kategoriya avvaliga badiiy-estetik funksiyalarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u tilshunoslik va pedagogik sohalarida ham ilmiy nazariy asosga ega bo‘lgan holda qo‘llanila boshlagan.

M.Y. Fedosyuk o‘z tadqiqotlarida janrlarni elementar va kompleks shakllarga ajratishni taklif qiladi. Elementar janrlar qatoriga xabar, buyruq, maqtov va taklif kabi sodda nutqiy janrlar kiradi²⁰. A.G. Baranov nutqiy janrlarni to‘rt turga ajratadi: 1) birlamchi sodda janrlar – faqat og‘zaki nutqda yuzaga keladi; 2) birlamchi murakkab janrlar – barqaror dialogik shakllar; 3) ikkilamchi sodda janrlar – ta‘rif, hikoya kabi oddiy matnlar; 4) ikkilamchi murakkab janrlar – past darajadagi janrlar asosida yaratilgan murakkab matn shakllaridir²¹. N.D. Arutyunova esa kommunikativ maqsadga asoslanib janrlarni quyidagicha tavsiflaydi: informativ dialog, preskriptiv dialog, fikr almashuvi orqali yechimga kelishga qaratilgan dialog, hamda haqiqatni aniqlashga qaratilgan muloqot turlari. T.V. Shmeleva nutq janrlarini axborotga oid, imperativ, etiket, baholovchi janrlarga ajratadi. M.Y. Fedosyuk esa ularni axborotga oid, emotiv va imperativ

²⁰ Федосюк М.Ю. Комплексные жанры разговорной речи: “утешение”, “убеждение” и “уговоры” // Русская разговорная речь как явление городской культуры. – Екатеринбург: Арго, 1996. – С. 73-94.

²¹ Баранов А.Г. Динамические тенденции в исследовании текста // Stylistyka IV. Opole, 1995. – С. 65-66

nutq janrlari sifatida tasniflaydi²². V.V.Dementev va K.F. Sedov axborotga oid va fatik nutq janrlarini farqlaydi. Axborotga oid janrlar – muloqot, fikr almashish, qaror qabul qilish va shaxsiy munosabatlarga doir bo‘ladi. Fatik janrlar esa shaxsiy munosabatlarni bevosita yoki bilvosita yaxshilovchi (maqtov, hazil) yoki yomonlashtiruvchi (haqorat, kina) janrlarga, shuningdek, bayramona nutq janrlariga bo‘linadi²³. Ushbu tasniflar nutq janrlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib berishda va muloqotning kommunikativ maqsadlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. F.Xasanovning “Ingliz va o‘zbek tillarida qasamyod nutqiy janrining qiyosiy-tipologik tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasi qasamyod janrini ikki tilda chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan²⁴. M.Anorboevaning “Qadah so‘zi” nutqiy janrining lingvistik attributi – etnik omil sifatida” mavzusidagi tadqiqoti o‘zbek xalq madaniyatida keng tarqalgan an’anaviy nutqiy janrlardan biri – qadah so‘zi (tost)ning lingvistik va etnokultur xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan²⁵.

Nutqiy muloqot janri ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar ta’sirida shakllanib, axborot almashinuvi hamda ta’sirchan aloqani ta’minlaydi; u adresatlilik, interaktivlik, ekspressivlik va situatsiyaviylik kabi xususiyatlarga ega bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy rollar asosida shakllanadi va o‘zgaruvchan qoliqlar orqali ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Dissertatsiyaning 2-bobi “**Kommunikativ madaniyat: nutqiy etiketning nazariy asoslari**” deb nomlanadi va unda nutqiy etiket hamda muloqotga kirishish – salomlashishning semantikasi haqida so‘z boradi. “*Nutqiy etiket formulalarining tarkibiy-semantik komponentlari*” deb nomlangan birinchi bobda jahon va o‘zbek tilshunosligida nutq odobining o‘rganilishi tahlil etilgan.

1970-yillardan boshlab Yevropa tilshunosligida lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanish xususiyatlarini, jumladan, nutqiy etiket formulalarining tarkibiy-semantik komponentlarini tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. V.G.Kostomarov “Nutq etiketi” atamasini birinchi bo‘lib fanga kiritdi va uni odatdagi vaziyatlarda ishlatiladigan stereotiplangan nutq birliklari deb atadi²⁶. Nutqiy etiket taniqli tadqiqotchisi N.I.Formanovskaya unga quyidagi ta’rifni beradi: “Nutqiy etiket – bu nutq xatti-harakatlarining tartibga soluvchi qoidalarini, jamiyat tomonidan suhbatdoshlar o‘rtasida aloqani o‘rnatish, tanlangan ohangda aloqani saqlab qolish va to‘xtatib turish uchun qabul qilingan va belgilangan milliy o‘ziga xos stereotiplar, barqaror aloqa formulalari tizimini anglatadi”²⁷. Roman-german tillari

²² Федосюк М.Ю. Комплексные жанры разговорной речи: “утешение”, “убеждение” и “уговоры” // Русская разговорная речь как явление городской культуры. Екатеринбург: Арго, 1996. – С. 73-94.

²³ Дементьев В.В., Седов К.Ф. Социопрагматический аспект теории речевых жанров. Учебное пособие. – Саратов: Изд-во Саратовского педагогического института, 1998. – 107 с.

²⁴ Хасанова Ф. Тилшуносликда нутқий жанр моделининг лингвистик хусусиятлари // Илм сарчашмалари. – №12. – Урганч, 2018. – Б. 47-50.; Хасанова Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида қасамёд нутқий жанрининг қиёсийтипологияси тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2019, –Б.5. <https://api.ziyouet.uz/uploads/books/251467/5de5e698ddd0b.pdf>

²⁵ Анорбоева М. С. “Қадах сўзи” нутқий жанрининг лингвистик атрибути - этник омил сифатида. (2024). Yangi O‘zbekiston Taraqqiyotida Tadqiqotlarni o‘rni Va Rivojlanish Omillari, 8(2), 249-253 b. <https://pedagoglar.org/04/article/view/4175>

²⁶ Костомаров В.Г. Русский речевой этикет // Русский язык за рубежом. 1967. № 1. – С. 73-91.

²⁷ Формановская Н.И. Вы сказали “Здравствуйте”. Речевой этикет в нашем общении. – Москва, 2005. –С.132

misolida P.Grays, D.R.Serl, D.Frank, T.A.Deyk²⁸ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar nutqiy etiket formulalarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga yo'naltirildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida nutqiy etiketning ilmiy asoslari yanada kengaydi. S.Ibroimov, G'.Abdurahmonov, I.Qo'chqortoev, R.Qo'ng'urov kabi olimlar nutqiy muloqotning stilistik, sotsiolingvistik va psixolingvistik jihatlarini tahlil qilish bilan birga, nutqiy etiket formulalarining milliy madaniyat va an'analar bilan bog'liq semantik xususiyatlarini ham tadqiq etdilar. Keyinchalik Sh.Safarov, S.Mo'minov, M.Hakimov singari olimlar nutqiy etiket formulalarining tarkibiy tuzilishi, ulardagi madaniy kodlar va o'ziga xos leksik konstruksiyalarni chuqur o'rganish orqali o'zbek tilidagi etiketning kommunikativ xususiyatlarini ilmiy asoslab berdilar²⁹.

D.M. Teshaboyeva fikricha, nutq madaniyatini egallash professional va samarali muloqotning asosiy sharti hisoblanadi³⁰. Professor S.Mo'minov o'z ilmiy izlanishlarida o'zbek muloqot xulqini ilk bor ijtimoiy-lisoniy aspektda tahlil qilib, o'zbek kommunikantlarining faoliyatiga xos kompozitsion bosqichlarni hamda ular o'rtasidagi munosabatning milliy o'zgacha xususiyatlarini atroflicha tadqiq etgan³¹. A.A. Mo'minovaning ta'kidlashicha, muayyan kasbiy va ijtimoiy sohalarda og'zaki muloqot madaniyatini o'rganish tilshunoslik, psixologiya, madaniy tarix va boshqa gumanitar fanlar sohasidagi bilimlarni integratsiya qilishni talab qiladi³². Sh.Iskandarovaning tadqiqotiga ko'ra, nutqiy etiketni o'rganishda muloqotning o'rni va vaqti, so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki, muloqotning maqsadi, asosi, aloqa vositalari, xulq-atvorning maxsus belgilangan shakllari, ifoda mavzusi, so'zlashuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xos xususiyatlari, ijtimoiy belgilari hamda vaziyatning rasmiy yoki norasmiyligi kabi jihatlar tahlil qilinadi³³. Q.Rasulovning tadqiqotlarida muloqotning kasbga bog'liq

²⁸ Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистики. Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 217-237; Серль Дж.Р. Косвенные речевые акты // Новое в зарубежной литературе. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 151-169; Франк Д. Семь грехов прагматики: тезисы о теории речевых актов, анализе речевого общения, лингвистике и риторике. / В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 363-373.; Дейк ван Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. – Москва: Прогресс, 1989. – 311 с.

²⁹ Иброҳимов С. Ўзбек тили нутқ маданиятига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –1964. – № 5. – Б.20-23; Абдурахмонов Ғ. Ўзбек адабий тилининг стилистик нормалари // Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар. – Т., 1973.- Б.51-55; Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарқанд, 1975. –240 б; Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. –Т.: Фан, 1975. – 96 б; Сафаров Ш. Система речевого общения. Универсальное и этноспецифическое. – Самарқанд: Сам.отд. из-ва им. Гафура Гуляма, 1991. – 170 с; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лisonий хусусиятлари: Филол. фан. д-ра. ... дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 20 б; Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1994. – 168 б; Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ра. ... дис. – Тошкент, 2001. – 283 б.

³⁰ Бакиева Г. Тешабоева Д. Медиа маконда матн. – Тошкент, 2019. – Б.181.

³¹ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лisonий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б.47.

³² Муминова А.А. Узбекский речевой этикет: Сен (Ты), Сиз (вы, Вы) Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2015, № 3. - С.96.

³³ Искадарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 27 б.

me'yorlari, ularning lisoniy va nolisoniy shakl hamda vositalari atroflicha tahlil qilingan³⁴.

Nutqiy etiket formulalari, asosan, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishini ta'minlaydi va bu jarayonda lisoniy verbal hamda noverbal vositalarning birgalikda ishlatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muloqotning birinchi darajali o'ziga xosliklaridan biridir. Masalan, "Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu" iborasining qo'llanishi oddiy salomlashuv formulasi emas, balki chuqur lingvokulturologik mazmunga ega bo'lgan konseptual birlik sifatida talqin etiladi. Bu kabi iboralarning qo'llanishi, faqatgina lisoniy bilim emas, balki madaniy kod, ijtimoiy kompetensiya va shaxsiy muloqot tajribasini ham talab qiladi. Aynan shu sababli, bunday salomlashuv iboralari ma'naviy-axloqiy va diniy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni ishlatish holatlari freym va senariy doirasida amalga oshadi. Jumladan, bunday salomlashuv holatlari maxsus ijtimoiy kontekstda – masalan, shaxsning yoshi, mavqei, kiyim-boshi, nasl-nasabi kabi ijtimoiy-me'yoriy mezonlarga asoslangan tarzda, ehtiyotkorlik bilan tanlangan kommunikativ vaziyatda qo'llaniladi. Bunda, salomlashuv jarayonida ishlatilgan nutqiy etiket formulalari – masalan, "Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu" kabi iboralar – madaniy mezonlar asosida aniq ifodaviy shaklga ega bo'ladi. Bu holatda og'zaki birlikni semiotik tizim doirasida kuzatiladigan ishoraviy vositalar, harakatlar va kontekstual signallar (jestlar, mimikalar) to'ldiradi.

Quyidagi lavha bunga yaqqol misol bo'la oladi: *"Shayx so'riga chiqib, mehmonlarni ikki yoniga o'tqazgach, boshlanglar, deb ishorat etdi. Jarchilar yugurishib, axiylar oqsoqoli yoniga kelishdi: birining qo'lida bir kosa suv, birining qo'lida charm tuzdon bor edi. Oqsoqol suvga tuz solib, kosani baland ko'tardi:*

– *Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu!*
– *Vaalaykum assalom! – javob berdi shayx.*" (Radiy Fish. "Jaloliddin Rumiy")

Ushbu lavha orqali fatik muloqotning freym tuzilmasi ochiladi: bu yerda har bir ishtirokchi (shayx, jarchi, oqsoqol) o'ziga xos rolga ega bo'lib, harakatlar esa oldindan madaniy senariy asosida shakllangan nutqiy etiket qolipi doirasida amalga oshiriladi. Bu qolip, o'z navbatida, to'ldirilgan holda aniq formulaga aylanadi va muloqotda faol ishlatiladi. Salomlashuvning o'zi esa, "baraka tilash", "hurmat bildirish", "iymon-e'tiqodni namoyish qilish" kabi kognitiv tasavvurlar bilan bog'langan konsept doirasida faoliyat ko'rsatadi. Bu esa formulaga yuksalgan qolipning semantik asosini tashkil etadi.

Bobning *"O'zbek fatik nutqida muloqotga kirishishning verbal va noverbal vositalari"* nomli 2-faslida salomlashishning verbal va noverbal vositalari tahlil etiladi. Muloqotning turli shakllari, ya'ni verbal va noverbal vositalar orqali axborot almashinuvi, har bir insonning ijtimoiy va madaniy kontekstiga mos ravishda amalga oshiriladi. Verbal muloqot so'z va lisoniy vositalar orqali axborotni ifoda etishni nazarda tutadi, xolos. Noverbal muloqot esa, so'zsiz vositalar orqali (imo-ishoralar, jestikulyatsiya, ishoralar, simvollar va belgilar)

³⁴ Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фанл. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 28 б.

axborotni tashish va ularning ta'siriga asoslanadi. Bu ikki shaklning birgalikda ishlatilishi, muloqotning eng asosiy xossaligidan biri bo'lib, ularning har birining mukammal va samarali ishlatilishi insonning ijtimoiy va madaniy kontekstiga to'liq mos kelishi talab etiladi.

Nutqiy muloqot deganda, lisoniy (verbal va noverbal) vositalarning uyg'un va integratsiyalashgan holda ishlatilishi tushuniladi. Bu, o'z navbatida, nafaqat axborot almashinuvining samaradorligini ta'minlaydi, balki muloqotning ijtimoiy, psixolingvistik va madaniy aspektlarini ham yaqqol namoyon qiladi. Masalan, "*Assalomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu*" yoki "*Salom*" kabi iboralarning ishlatilishi insonning shaxsiyat darajasini, ijtimoiy mavqeyini, yoshini va madaniy ko'nikmalarini ko'rsatadi. Bu iboralar faqat so'zlardan iborat emas, balki ularga qo'shiladigan jestlar, ishoralar va boshqa noverbal vositalar bilan birgalikda ishlatiladi. Shunday qilib, muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalarning sinergiyasi, ijtimoiy va madaniy kontekstda o'zaro bog'liqlikni namoyon qiladi, bu esa insonlar orasidagi axborot almashinuvi va o'zaro tushunishning chuqurligini ta'minlaydi. Misol:

– *Salom. Tinchlikmi?* – *dedim muzdek qo'lini qisib*³⁵.

Nutqiy muloqot mikrosistemasining o'zi o'zaro birin-ketinlik munosabatlari bilan bog'langan "*salomlashish*" – *Assalomu alaykum va rahmatullohu barakotuh!*, *Assalomu alaykum!*, *Assalom!*, *Salom!*; "*alik olish*" – *Salom!*, *Valaykum!*, *Valaykum salom!*, *Valaykum!*, *Valekum assalom!*, *Valaykumu sssalom va rahmatullohu va barakotuh!*; "*ko'rishish-so'rashish*" – *Omonmisiz?*, *Yaxshimisiz?*, *Qalaysiz?*, *Ishlar qalay?*; "*javob berish*" – *Alhamdulillah!*, *Xudoga shukr!*, *Shukur/shukr!*, *Yaxshi!* kabi mikrotizimlardan iborat. Ularning har bir lisoniy verbal vositalari o'ziga xosdir.

Salomlashishni boshlash va unga javob berish odatda yuz ifodalari, imo-ishoralari va gavda holati bilan kuzatiladi. E.Venotolening fikricha, kundalik uchrashuvlar shunchaki til orqali amalga oshirilmaydi; aslida biz butun tanamiz bilan bir-birimiz bilan gaplashamiz³⁶. Tana tili har qanday shaxsiy verbal muloqot va salomlashishning asosiy elementidir, ya'ni ertalab yoki kechqurun odamlar shoshib turganda og'zaki salomlashish imkoni bo'lmasa, yuz ifodalari va nigoh orqali muloqot o'rnatish, qoshlarni tushirish, jilmayish, bosh silkitish, shuningdek, qo'l silkitish salomlashish komponenti bo'lib xizmat qilishi mumkin³⁷.

Masalan, Abdulla Qodiriyning "*O'tkan kunlar*" romanidagi qaynota bilan kelinning ilk uchrashuvi tasviriga qaratsak: "*Kumush uyalib zo'rg'agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo'yin egdi. Hoji qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tegizib olgan o'z qo'lini o'pdi*". (A.Qodiriy. "*O'tkan kunlar*".)

Misoldagi "*bo'yin egmoq*", "*yelkasiga qoqib suymoq*", "*manglayiga tegizib olgan o'z qo'lini o'pmoq*" kabi holatlar o'zbek millatiga xos madaniy odatlardir.

³⁵ Умарбеков Ў. Танланган асарлар. 2-жилд. "Шарк", – Тошкент, 2005. –Б. 26.

³⁶ Ventola E. The structure of casual conversation in English / E. Ventola // Journal of Pragmatics, 1972. -№ 3. – P. 267-298.

³⁷ Kourosh Saberi. Routine Politeness Formulae in Persian: A Socio-Lexical Analysis of Greetings, Leavetaking, Apologizing, Thanking and Requesting/ Kourosh Saberi // University of Canterbury. – 2012. - 297pp.

NMning tashqi tarkibiy qismlari: milliy (etnik) va madaniy (etik) xususiyatlar nutqiy vaziyat bilan bog‘liqligidan dalolatdir.

O‘zbek madaniyatida insonlar turli xil jismoniy imo-ishoralar, shakl va funksiyalardan foydalanadilar. Bu ishoralar faqatgina o‘zbek millatiga mansub bo‘lishi mumkin, yoki boshqa madaniyat elementlari bilan o‘xshashliklarga ega bo‘lishi mumkin.

“Muloqotga kirishishning kognitiv-semantik yondashuvlari” nomli so‘nggi faslida salomlashish shaxslararo munosabatlarning muhim bosqichi sifatida baholanib, u sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek madaniyatida alohida o‘rin egallashi ta’kidlanadi. Muvaffaqiyatli salomlashuv suhbat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Avval salom, ba’d kalom” maqoli ushbu jarayonning og‘zaki nutqdagi barqaror etiket qolipi ekanligini anglatadi. “Assalomu alaykum” va unga javoban aytiladigan “Vaalaykum assalom” iboralari esa an’anaviy nutqiy etiketik formulalar sifatida shakllangan. O‘zbek tilida salomlashish formulalarining ishlatilayotgan kontekstida, suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqei va o‘zaro munosabatlari asosiy belgilavchi omillardan biri hisoblanadi. Bu omillar, o‘z navbatida, tilning madaniy va ijtimoiy rolini shakllantirishga yordam beradi. Salomlashish jarayoni, har doimgidan ko‘ra, ko‘proq madaniy tafovutlar va ijtimoiy xavfsizlik prinsiplarini o‘z ichiga oladi. Aynan oila a’zolari, qarindoshlar, tanishlar va notanishlar orasida salomlashish, individual va ijtimoiy darajadagi munosabatlarning madaniy ramzi sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, “salom”ning takrorlanishi va uning pastroq ohangda aytilishini ahamiyatga olish zarur. Bu holda, uning takroriy jo‘shili va kamtarona talaffuzi, ko‘pincha ma’naviy tajribalarga bog‘langan bo‘lib, ushbu amal muayyan sotsial yoki madaniy kontekstdagi intilish va ehtiromni ko‘rsatadi. Ammo, har bir odam uchun salomning miqdori va qaytarilgan javobning shaxsiy ishoralari va mafkurasiga bog‘liq holda farqlanishi mumkin. Masalan:

Arslonqul qandaydir bir bekozodaning peshonasi oq qashqa, ajoyib tulpor otini o‘lja tushurib oldi. G‘urur bilan darvozadan minib kirib maydonda gijinglatib yurarkan, darvoza tomonga asta kelayotgan Navoiyni ko‘rdi. Otdan tushib, yetaklab, shoir qoshiga bordi:

– *Salom! – bir qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi Arslonqul*³⁸.

Dissertatsiyaning 3-bobi “**Fatik nutqiy muloqotni yakunlashning kognitiv-semantik tahlili**” deb nomlanadi. “*Xayrlashuv nutqiy aktining strukturasi*” deb nomlangan 1-faslda nutqiy muloqotni yakunlash – xayrlashishning umumiy xususiyatlari tahlil etiladi.

Muloqotni yakunlash turi mazmunan urfiy-odatiy (etik) xususiyatga ega bo‘lib, uning asosiy vazifasi muloqotni tugatish va diskursni yakunlashdan iborat. O‘zbek milliy suhbat odobiga ko‘ra, muloqotni yakunlash jarayoni suhbatdoshlar o‘rtasidagi samimiy munosabatni aks ettirib, ularning muloqotdan mamnunligi haqida ma’lumot berish bilan birga, o‘zaro ezgu tilaklarini bildirish va kelgusidagi aloqalarga hozirliklarini namoyon qiladi. Bunday yakunlovchi nutqiy tuzilma (konstruksiya)lar odatda “*Xayr, omon bo‘ling!*”, “*Suhbatdan juda mamnun*

³⁸ Oybek. Navoiy. Roman. – T.: “Sharq”, 2004. –B. 473.

bo'ldim", "Xudo yana uchrashirsin!", "Kelib turing!" yoki "Uzilib ketmang!" kabi iboralar bilan ifodalanadi.

Xayrlashuv holatlarida qo'llaniladigan kommunikativ aktlar:

1. Kundalik turmushdagi xayrlashuvlar. Mazmun: Kundalik hayotda doimiy ravishda ishlatiladigan, qo'llanish chegarasi keng bo'lgan iboralar.

Nutqiy tuzilma: "Xayr³⁹!", "Ko'r ishguncha!"

Misol: - *Rahmat, oldin imtihonlarni torshirib olaylik, - dedi u tuflisining uchi bilan yer chizib keyin qo'shimcha qildi.*

– *Endi... Xayr...Sog' bo'ling...*

Yo'q, Muqaddas buyruq bermas, u faqat iltimos qilar dugonalarini ko'rib qolishidan uyalgani uchungina ajrashishni xohlar edi!

– *Ko'rishguncha, – dedim men.*

– *Xayr, – dedi Muqaddas va yuzimga bir qarab olgach: – ximiyani ham shunaqa qilib topshiramizmi? – deb so'radi.*

– *Albatta, – dedim kulib.*

Biz ajrashdik⁴⁰.

2. Uzoq muddatli xayrlashuvlar. Mazmun: Biror shaxs bilan uzoq vaqt uchrashish imkoniyati bo'lmaganida yoki hech qachon uchrashmaslik kutilganda qo'llaniladigan iboralar.

Nutqiy tuzilma: "Omon bo'ling!", "Xudo yana uchrashirsin!"

Misol: *Ne xesh meni xushlaru ne begona,*

Ne g'ayr rizo mendinu ne jonona.

Har nechaki yaxshilikda qilsam afsun,

Xalq ichra yomonlik bilan men afsona.

Ichki tug'yon bilan o'rtanib aytilgan bu satrlarning tafti cho'ponning birdan yaltirab ketgan ko'zlarida aks etdi.

– *Sen ham kuyganlardan ekansen, shoirliging tan berdim! Agar shu shoirliging bo'lmasa, seni rahmatlik otamning qasdiga itlarimga talatib yuborar edim! Xayr, shoir, omon bo'l!*

Cho'pon itlarini ergashtirganicha chag'atda yoyilib yurgan qo'ylariga qarab ketdi⁴¹.

3. Kelishilgan uchrashuvni kutgan holatdagi xayrlashuvlar. Mazmun: Keyingi uchrashuv kutilayotganini ifoda etuvchi iboralar.

Nutqiy tuzilma: "Kelib turing!", "Ko'rishamiz!"

– *Bizlarni unutib yubormasdan kelib turing, Gulchehraxon! – dedi u go'yo shunday chiroyli juvon bilan yaqin munosabatda ekanini bizga ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgandek, jo'rttaga qo'lini qo'yib yubormasdan:*

– *Demak... shu qarorga keldikmi? – deb so'radi. Juvon kalta, quyuq sochlarini silkitib kuldi:*

– *Yaxshi yigit kelib turing demaydi, vaqt-soatini va uchrashadigan joyini aniqroq aytadi.*

³⁹ Xayr – arab tilidagi "خير" (khayr) so'zidan olingan bo'lib, aslida "yaxshi", "eng yaxshi narsa" degan ma'noni bildiradi.

⁴⁰ Ёкубов О. Муқаддас. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1963. – Б. 39.

⁴¹ Қодиров П. Юлдузли тунлар. – Т.: 2023. – Б. 156.

– *Obbo‘ siz-e! – dedi qizarib Po‘lat Azizov, lekin juvon “Xo‘sh, bopladimmi?” degan ma‘noda qo‘llarini siltab qiyshanglab kuldi va eshikka tomon yurdi* ⁴².

4. Xayrlashuv va keyingi uchrashuvni belgilash. Mazmun: Xayrlashuv jarayonida keyingi uchrashuv vaqti yoki o‘tkaziladigan joyni bildirish.

Nutqiy tuzilma: *“Ertaga ko‘rishamiz!”, “Uchrashguncha!”, “Omad tilayman”*

Misol: Saida opa deyayotganim – shoira Saida Zununova, mazkur jurnalda adabiyot bo‘limini boshqarar, keyin u kishi bo‘shamoqchi bo‘lib qolib, o‘rniga meni ishga taklif qilishgan edi. Mirtemir akaning yuzi yorishib ketganini payqadim. Qo‘lidagi papka og‘ir shekillik yana u qo‘lidan-bu qo‘liga oldi.

– *Mayli, kirib chiq. Senga omad tilayman,– dedi men bilan xayrlasharkan. Men u kishini bir oz orqasidan kuzatib turdim. Bir mahal orqasiga qayrilib qaraganday bo‘ldi. Darvoqe, qo‘lini ko‘tarib chaqirar edi. Zipillab oldiga bordim.*

– *Bo‘sh bo‘lsang, uyga kelsangchi, maslahatli gap bor.*

– *Mayli,– dedim.– “Pioner”dagilar nima der ekan, bilay-chi. So‘ng... kechroq borarman.*

– *Kel, kutaman.* ⁴³.

5. Tasodifiy do‘stona munosabatlardagi xayrlashuvlar. Mazmun: Yoshlar o‘rtasidagi suhbatlarda yoki norasmiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan qisqa, oddiy iboralar.

Nutqiy tuzilma: *“Xayr!”, “Bo‘pti, ko‘rishamiz!”*

M: Qizishib gapirganidan hansirab qolgan Mariya Vasilevna stol orqasida u yoqdan-bu yoqqa yurardi:

– *Kommunist...*

Past ovoz bilan aytilgan bu so‘zdan Orif aka hushyor tortdi. “Kommunistligimni pesh qilma!” deb jerkib tashlashdan o‘zini arang tiyib qoldi. Boshini ko‘tarmadi. Mariya Vasilevna kelib uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydida, “Men-ku tushunaman...” degandek qarab, tasalli bergan bo‘ldi.

– *Gaping to‘g‘ri, Mariya Vasilevna. Men hozir xo‘jalikka ketaman.*

– *Xayr, - Mariya Vasilevna qo‘l berdi* ⁴⁴.

6. Yaxshilik va omad tilash bilan bog‘liq xayrlashuvlar. Mazmun: Xayrlashuv bilan birga ezgu tilaklar bildiriladi.

Nutqiy tuzilma: *“Omad tilayman!”, “Xayr, baraka toping!”*

– *Shunqorlarim, yog‘iyni safi buzilib chekinganini ko‘rdilaring. Ular son jihatdan ham bizdan oz! O‘zlari sovuqda diydirab holdan ketgan. Men ishonamen, ollohu taolo bizga yana bir ulkan g‘alabani in‘om etgusidir! Muhammad alayhissalomning arvohlari pok sunniy mazhabidagilarni qo‘llab-quvvatlagusidir! Choryori bosafolar madadkoringiz bo‘lsin, shunqorlarim. Dushman o‘z saflarini qayta tuzib ulgurmasdan yetib boringlar! Xudo omadlaringni bersin! Omin ollohu akbar!*

Minglab ovozlarning:

⁴² Ёкубов О. Муқаддас. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1963. – Б. 39.

⁴³ Фозилов Н. Устозлар даврасида. – Т., 1988. – Б. 86.

⁴⁴ Мухтор А. Чинор. – Т.: “Олтин қалам”, 2024. – Б. 24.

– *Ollohu akbar!*

– *Ollohu akbar! – degan hayqirig‘i barcha saflar bo‘ylab taraldi*⁴⁵.

7. Abadiy xayrlashuvlar. Mazmuni: Bunday xayrlashuv insonlar o‘rtasidagi muloqotning tugashi va keyingi uchrashuvning yo‘qligiga ishora qiladigan nutq akti.

Nutqiy tuzilma: *“Alvido!”*, *“Siz doim qalbmida qolasiz”*, *“Doimo xotiralarda yoshaysiz!”*

Misol: *Darveshali. Sen hali baxtli bo‘lasan.*

Gulnoza. Siz ham...

Darveshali. Yo‘q, sensiz baxt kerak emas menga.

Gulnoza. Yana bir og‘iz gapirsangiz... faryod chekib oyog‘ingizga yiqilaman.

Darveshali. Yo‘q-yo‘q. Sen baxtingni topmog‘ing darkor. Men esam... qolgan umrim sening xayoling bilan yashayman. Kel, menga baxshida etgan eng saodatli kunlaring uchun aziz peshonangdan bir o‘pay...

Gulnoza (ko‘z yoshlaridan bo‘g‘ilib). Agar mabodo o‘sha saodatli kunlar esimga tushib, yo‘qlab kelsam... qayerdan topaman sizni?

*Darveshali: Bu shahar, bu dargoh menga yot endilikda. Qidirgudek bo‘lsang, men devonani tog‘lardan topasan, g‘orlardan topasan... Alvido! Ko‘z ochib ko‘rganim, yolg‘izim, Ollohi taollo in‘om etgan farishtam!*⁴⁶

3-bobning “Muloqotni yakunlashning kognopragmativ yondashuv asosida tahlili” nomli 2-faslida xayrlashuv ijtimoiy aloqani rasmiy yakunlash bilan birga, kelgusidagi muloqot uchun imkoniyatni saqlab qolishga xizmat qilishi ta‘kidlanadi. Shuningdek, xayrlashuv tashabbusi javob reaksiyasini talab qilib, kommunikativ majburiyatni yuzaga keltiradi. Rus tilida og‘zaki neytral rasmiy vidolashuv “*Пока!*” so‘zlari bilan birga keladi. “*Auf Wiedersehen*” nemis tilida “sayohatdan qaytganda uchrashguncha” yoki “sayohatda ko‘rishgancha” degan ma‘noni anglatadi. Bu so‘z odamlarga yoki jamoaga xidoyat qilish va ular bilan salomlashish uchun ishlatiladi. “*Auf Wiedersehen*” so‘zi ko‘pincha xushxabarlar va xayrlashish hollarida yoritiladi. O‘zbek tilida xayrlashish eng keng tarqalgan “*Sog‘ bo‘ling*” neytral shakli bilan ifodalanadi. Xayrlashuvning qisqartirilgan shakli muloqot qiluvchilarning nisbatan yaqin tanishligini nazarda tutadi va norasmiy muloqotida qo‘llaniladi! (*Ko‘rishguncha! / Xayr! Xayr! / Tez orada ko‘rishguncha!*)

O‘zbek xalqida xayrlashuv muloqotning muhim va odobga oid bosqichi hisoblanadi. Suhbat oxiri do‘stona ohangda bo‘lishi, aloqani davom ettirish imkonini yaratishi kerak. Xayrlashuv vaziyatga mos va muloyim shaklda bo‘lishi lozim, aks holda suhbatdoshda noto‘g‘ri taassurot uyg‘onishi mumkin. Masalan, xayrlashishdan oldin ketish zaruriyatiga murojaat qilishingiz mumkin: “*Biz borishimiz kerak*”, “*Men ketishim kerak*”, “*Uzr, lekin men ketishim kerak*”. Suhbat oxirida ular ko‘pincha muloqot uchun minnatdorchilik bildiradilar, uchrashuvdan qoniqishlarini bildiradilar va ba‘zan suhbatdoshning vaqtini olgani uchun kechirim so‘rashadi.

⁴⁵ Кодиров П. Юлдузли тунлар. – Т., 2023. – Б. 200.

⁴⁶ Ёқубов О. Бир кошоно сирлари. – Т., 2000. – Б. 22.

Insonlar orasidagi muloqotning eng asosiy turlari verbal va noverbal muloqot hisoblanadi. Verbal muloqot – faqat shaxs uchun xos bo‘lib, asosiy shart sifatida lisonni o‘zlashtirish belgilab beriladi. Nutq kommunikativ vosita sifatida bir paytning o‘zida ham axborot almashunuvi, ham suhbatdoshi bilan o‘zaro ta’sirlashuv vositasi misolida yuzaga chiqadi. Verbal muloqot tarkibiga: so‘zlar, iboralar ma’nosi va mohiyati kiradi. Aksariyat qismini so‘zning qo‘llanish aniqligi, uning ifodalinishi va hammabopligi, tovushlar, so‘zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi. Ilmiy izlanish natijalariga ko‘ra, inson nutqiy muloqotning har kungi aktida so‘zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo‘lmagan o‘zaro ta’sir – 53%ni tashkil etadi. Xayrlashuv nutqiy aktida ham “Xayr”, “Sog‘ bo‘ling”, “Alvido”, “Ko‘rishguncha” singari verbal vositalardan unumli foydalanadi.

O‘zbek tilida mehmon va mezbob suhbatlarida “Xayr”, “Yaxshi boring”, “Uyda gilarga salom ayting”, “Yana keling”, “Yotib borardingiz”, “Yana bir pas o‘tiring”, “Alloh panohida asrasin”, “Allohga omonat topshirdim”, “Yaxshi yetib oling”, “Yaxshi qoling”, “Ehtiyot bo‘ling”, “O‘zingizni ehtiyot qiling”, “Yuring aylantirib kelaman”, “Yuring biznikiga”, “Biznikiga ham boring”¹⁵⁶ kabi ko‘rinishlari uchradi.

Xayrlashish nutqiy akti muayyan kommunikativ vaziyatlarga moslashgan bo‘lib, ularning shakli, mazmuni va ifoda vositalari xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasidan kelib chiqqan holda farqlanadi (Qarang:3.1-jadval):

3.1-jadval.

Xayrlashish etiketining etnomadaniy jihatlari

Element	Lisoniy birlik	Xayrlashish shakli	Noverbal harakatlar
O‘zbek madaniyati	“Xayr”, “Ko‘rishguncha”, “Xo‘p, omon bo‘ling”	Keksa kishi yoshlar bilan xayrlashganda duo qilishi	Qo‘l qo‘yib duo qilish
Yapon madaniyati	“Sayonara”, “Mata aymasho”	Ko‘proq egiladigan hurmatni ifodalash	Badani bilan egilgan holat
G‘arb madaniyati (Inglizcha)	“Goodbye”, “See you later”	Ijtimoiy hamkorlikka umid bildirish	Qo‘l silkash
Hind madaniyati	Namaste – नमस्ते Salaam – سلام	Tinchlik, ehtirom va mehmondo‘stlik	Qo‘llarni qovushtirish
Tibet madaniyati	“Tashi de ley” (Tashi Delek)	“omad tilash” ma’nosi	Boshni pastga egish, ikki qo‘llarini ko‘krakka yaqin holda jipslashtirish
Rus madaniyati	“Do svidaniya”, “Прощай”	Qadrlash, har doim aloqani saqlash	Ko‘pincha kichkina salom berish
Tatar	“Sau bul!”, “Isən bul!”	“Samimiylik” va	qo‘llarni ochiq holda

Element	Lisoniy birlik	Xayrlashish shakli	Noverbal harakatlar
madaniyati	”	“Sizga yaxshi tilaklar” ma’nosi	yuqoriga yengil ko‘tarish
Arab madaniyati	“مَعَ السَّلَامَةِ”, “Tinchlik bilan”	Din, salomatlik va anomalikni ifodalash	Qo‘lni ko‘tarish yoki duo qilish
Filippin madaniyati	“Paalam”, “Bi-bi”	Umid va ehtirom bilan xayrlashish	Qo‘l silkish
Fors madaniyati	⁴⁷ خُذْ حَافِظًا [Xoda hafez]	Xudo asrasin!	

O‘zbek tilida, gender jihatdan nutqiy etiket birliklari umumiy bo‘lib, ayollar va erkaklar o‘rtasida maxsus farqlar kuzatilmaydi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi xayrlashuv iboralariga qo‘shib aytilgan “erkalash” (aylanay, girgittan, qoqindiq) so‘zlari ayollar nutqiga xos bo‘lib, bu so‘zlar juda ko‘p ayollar suhbatlarida ishlatiladi. Ushbu tushunchalar ayollarning ehtiyotkor, yumshoq va muloyim munosabatlarni ko‘rsatishga bo‘lgan intilishini aks ettiradi⁴⁸. Har ikki tilda ham pozitiv etiket belgilari ishlatilishi va ular tinglovchini ulug‘lash yoki o‘zini pastga urish kabi diskurs vositalarida ko‘rilmaydi. Bu ijobiy muomala va so‘zlashuv shakllarini va suhbatning to‘g‘ri yakunlanishini ta‘minlashga qaratilgan⁴⁹. Ko‘pgina tillarda xayrlashuv kishilar bir-biri bilan yana ko‘rishishga umid bildirish va Xudodan yaxshilik tilash bilan bog‘liqdir.

Dissertatsiyaning “**Nutqiy etiket (odob) strategiyasining ijtimoiy-madaniy tadqiqi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobi uch faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli “*Minnatdorchilik – fatik-etiket muloqot turi sifatida*” deb nomlanadi.

Nutqiy etiket salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik va uning boshqa ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladigan nutq odobiga asoslanadi. Minnatdorchilik birligi sifatida Markaziy Osiyoning boshqa tillarida (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman) rahmat/rahmet so‘zi keng qo‘llaniladi, bu arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, semit tilidagi “*rh*” o‘zagi “*iltifot*” degan ma‘noni anglatadi. “Shunga ko‘ra, minnatdorchilik-bu rahmat bildirilayotgan kishiga iltifot ko‘rsatish ma‘nosiga ega sehrlil harakat”⁵⁰.

Mashhur olim V.I. Karasikning tadqiqotlariga ko‘ra, minnatdorchilik leksikasining etimologik tahlili shunday xulosaga olib keladi: minnatdorlik tuyg‘usi insonda quvonch hissini uyg‘otadi va boshqa shaxsning amalga oshirgan harakatlariga javoban shukronalikni ifodalash istagiga asoslanadi. V.I. Karasik minnatdorchilik konseptining ichki mazmunini ochishda uning tarkibida quvonch, ezgu so‘zlar, iltifot, ehson, maqtov, duo va mukofot kabi semantik komponentlarni ajratib ko‘rsatadi⁵¹. F.Kulmas minnatdorchilik obyektlarini tasniflash uchun

⁴⁷ <https://www.vajehyab.com/>

⁴⁸ Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 14.

⁴⁹ Муаллиф электрон сўровномаси: <https://www.quora.com/How-is-your-attitude-of-using-taarof/answer/>

⁵⁰ Карасик В.И. Языковая Матрица культуры / В.И. Карасик // – М.: Гнозис, 2013. – 320 с.

⁵¹ Ўша асар. – Б. 104.

quyidagi to‘rt asosiy mezondan foydalanishni taklif qiladi: haqiqiy/potensial, moddiy/nomoddiy, so‘ralgan/so‘ralmagan va qarzдорlik/qarzsizlik mezonlari⁵².

Hozirgi o‘zbek madaniyatida minnatdorlik birliklari insonlar o‘rtasidagi iltifot va hurmatni ifoda etishda keng qo‘llanadi. O‘zbek madaniyatida “Rahmat” so‘zining qo‘llanilishi:

Oddiy minnatdorlik: Oddiy vaziyatlarda minnatdorchilik bildirish uchun “Rahmat” so‘zi ishlatiladi. Masalan, kimdir yordam berganda, xizmat ko‘rsatganda yoki sovg‘a taqdim etganda, “Rahmat” deb shukronalik bildiriladi.

Minnatdorlik darajasini oshirish: O‘zbek tilida minnatdorchilikni kuchaytirish uchun “katta” so‘zi qo‘shib, “Katta rahmat” ba‘zan “ming rahmat” shakli qo‘llanadi. Bu ko‘proq samimiylik va hurmatni namoyon etadi.

– *Rahmat, ming rahmat sizga, meni juda og‘ir muammodan qutqardingiz*⁵³.

“Rahmat”ga javoban, ko‘pincha “Sizga ham rahmat”, “Salomat bo‘ling” yoki “Ko‘p yashang” kabi tilaklar bildiriladi. Bu an‘ana iltimosga javoban hurmat va aloqani mustahkamlash vositasi sifatida yashab kelmoqda.

Rasmiy minnatdorchilik shakllari: “Tashakkur” so‘zi o‘zbek tilida minnatdorlikning rasmiyroq ifodasi sifatida qo‘llaniladi. U, odatda, ko‘proq yozma murojaatlarda va rasmiy holatlarda, masalan, tadbirlarda yoki yuqori lavozimli shaxslarga murojaatda ishlatiladi. Minnatdorlik darajasini oshirish uchun “Tashakkurlar!” yoki “Chin dildan tashakkur!” kabi iboralar ham ishlatiladi.

Bir ozdan so‘ng yuzlari kulib, keskinlik bilan dedi:

– *Xotirjam bo‘l, pasport topaman. Ertaga erta bilan qo‘lingda bo‘ladi.*

– *Tashakkur etaman*⁵⁴.

O‘zbek xalqining diniy qadriyatlari minnatdorchilik madaniyatida alohida o‘rin tutadi. “Shukr” so‘zi shukronalikni bildirishda ishlatilib, aksar hollarda “Allohga shukr” yoki “shukrona” kabi iboralar bilan ifoda etiladi. Bu iboralar nafaqat shaxsiy quvonchni, balki Xudoga bo‘lgan e‘tiqod va shukronalikni namoyon etadi. O‘zbek xalq madaniyatida diniy elementlar ham minnatdorchilik bildirishda katta o‘rin tutadi. Masalan:

“Allohga shukr”: Allahga shukronalik bildirishda ishlatiladi.

“Olloh sizdan rozi bo‘lsin”: Kimgadir yaxshilik yoki xizmat uchun minnatdorchilik bildirishda qo‘llaniladi.

“Shukrona”: Ushbu ibora shaxsiy shukronalikni bildirishda, ayniqsa, ziyoli va diniy muhitda qo‘llaniladi.

– *Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg‘an ekanmiz-da, – deb tevaragiga qarab kulindi va qo‘lini duog‘a ochdi. – Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliqlaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Olloh taolo yoshlarg‘a tinch va barakatlik umr bersin. Ilohim, taqabbul duo...*⁵⁵

⁵² Kourosh Saberi. Routine Politeness Formulae in Persian: A Socio-Lexical Analysis of Greetings, Leavetaking, Apologizing, Thanking and Requesting/ Kourosh Saberi // University of Canterbury. – 2012. – 297pp

⁵³ Хайридин Султон. Одамлардан тинглаб хикоя. – Т., 2020. – Б. 51.

⁵⁴ Чўлпон Кеча ва Кундуз. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2011. – Б. 176.

⁵⁵ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: “Шарқ”, 2014. – Б. 180.

O‘zbek xalq madaniyatida minnatdorchilikning bilvosita shakllari ham keng tarqalgan. Bu shakllar asosan duolar va yaxshi tilaklar orqali ifodalanadi:

“*Ko‘p yashang*” yoki “*Salomat bo‘ling*”: Kingadir minnatdorchilik bildirishdagi an’anaviy tilaklar: – *Ko‘b yashang, boy aka. Qulingiz ham bu to‘g‘rida ko‘b o‘yladim. Xafa bo‘lsa nima chorakim, biz shu ishka majbur bo‘lg‘an bo‘lsa. Shuning bilan birga Yusufbek hoji ham unchalik aqlsiz kishilardan emaski, bu gapka xafa bo‘lsa. Ammo men qutidor ko‘nadimi, yo‘qmi, deb bu tomonni o‘ylab turibman?*⁵⁶

O‘zbek madaniyatida kattalarga hurmat, yoshlar quvonchi va oila qadriyatlariga alohida e’tibor beriladi. Shu sababli, minnatdorchilik bildirishda milliy an’analar, urf-odatlar va diniy qarashlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, kattalarga hurmat ko‘rsatish maqsadida “*Katta rahmat*” yoki “*Hurmatingiz baland bo‘lsin*” kabi iboralar qo‘llaniladi.

“*Muloqotni saqlab qolishda ishlatiladigan nutqiy strategiyalar*” nomli 2-faslda nutqiy kommunikatsiyani samarali tashkil etish va muloqot jarayonini uzluksiz ta’minlash masalasi ko‘rib chiqiladi.

“Muloqot strategiyasi – bu muayyan muloqot interaksijasida umumiy lisoniy/lisoniy bo‘lmagan bosh masalaning yechimi uchun so‘zlovchi o‘zining nutqiy faoliyatini amalga oshirishining ijodiy rejasini tuzib olishidir. Bu moslashuvchan mexanizm muloqot jarayonida doimiy tuzatishlarga uchraydi, samarali yechim topish imkonlarini izlaydi”⁵⁷. N.V.Grigoreva ta’kidlaganidek, nutqiy kommunikatsiyada maqsadga erishish uchun albatta ehtiyotkorlik choralarini ko‘rish va amalga oshiriladigan harakatlarni rejalashtirish zarur. Boshqacha aytganda, kam xarajatlar bilan maqsadga erishish uchun “strategiya” va “taktika” ishlab chiqilishi lozim⁵⁸. M. Hakimovning ta’rifida⁵⁹ aytilishicha, “kommunikativ taktika” so‘zlovchining fikr ifodalash usuli bo‘lsa, minnatdorchilik nutqiy akti orqali ham bu usullar hayotga tadbiiq qilinadi. Minnatdorchilik nutqiy akti suhbatdosh bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va ijobiy mental holatni saqlash uchun muhim taktikadir.

Minnatdorchilik nutqiy akti ko‘pincha suhbatda ijobiy munosabatlar o‘rnatish va muloqotni davom ettirish maqsadida qo‘llaniladi.

Misol:

– *Rahmat, aka, menga ko‘p yordam berdingiz, – dedi Laylo, go‘zal ko‘zlaridan yorug‘lik ato etgan holda.*

– *Bu mening vazifam, – dedi Temur aka, lahzada bojlangancha kashf qilgan holda. – Sizga yordam berishim men uchun sharaf. (Gazetadan)*

Ushbu nutqiy aktda minnatdorchilik strategiyasi Layloning “Rahmat, aka, menga ko‘p yordam berdingiz” degan so‘zi aniq o‘z ifodasini topgan. Bu strategiyaning maqsadi – suhbatdoshga ijobiy munosabat bildirish va uning

⁵⁶ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: “Шарқ”, 2014. – Б. 21.

⁵⁷ Хамроева Н.Н. Ўзбек нуқий мулоқотида фатика (илифот мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.– Бухоро, 2023.

⁵⁸ Григорьева Н.В. Стратегии вежливости в речевой коммуникации представителей британской, американской и австралийской лингвокультур: дис. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2009. –С.45

⁵⁹ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 155

harakatlarini qadrlash. Laylo o‘ziga yordam bergan Temur akaga minnatdorchilik bildirish orqali, albatta, muloqotda ijobiy muhit yaratadi. Layloning so‘zi nafaqat minnatdorchilikni, balki rahmat bildirish va hurmat ko‘rsatishni ham o‘z ichiga oladi. Bu nutqiy taktika suhbatdagi munosabatlarni mustahkamlash, yoki suhbatdoshga nisbatan ijobiy munosabatni safarbar qilishga yo‘naltirilgan. Bu strategiyadan foydalanish, natijada, yordam berish yoki qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Temur aka o‘zining “Bu mening vazifam” degan so‘zi bilan, faqat yordam berishga tayyor ekanligini bildirish bilan birga, o‘zini yordamchiga engil turda ko‘rsatishdan saqlanadi. U minnatdorchilikni qabul qilmaydi, balki uni o‘z vazifasi deb hisoblaydi. Bu nutqiy strategiya Temur akaning o‘z rolini himoya qilishini ko‘rsatadi, shu bilan birga u suhbatdoshni raqib sifatida qabul qilmasdan, muloqotni salbiy oqibatlardan saqlaydi.

Strategiya umumiy maqsad va yo‘nalishni belgilaydi. Strategiya oldindan to‘liq va umumiy ko‘rsatmalarni (masalan, “minnatdorchilik bildirish”) belgilaydi, ammo uni qanday amalga oshirish haqida aniq va real qadamlar (taktikalar)ni belgilamaydi. Taktika – bu strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qadamlar. U har bir qadamda amalga oshiriladigan aniq harakatlarning tizimidir. Taktika strategiyani hayotga tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan detallarni ta’minlaydi.

Minnatdorlik bildirishda nutqiy etiket strategiyalari turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagicha misollar bilan izohlanadi:

1. Pozitiv strategiyalar (suhbatdosh bilan iliq munosabat o‘rnatish va uni qo‘llab-quvvatlash): *“Sizga cheksiz minnatdorman! Yordamingizsiz bu ishni uddalay olmasdim!”*, *“Juda katta rahmat! Siz har doim yordam berishga tayyor ekaningizdan mamnunman”*, *“Sizning mehnatingiz va yaxshi munosabatingiz uchun minnatdorman, bu men uchun juda qadrli.”*

Masalan:

Kamtarin. Tabiat go‘zal, tong go‘zal, gullar undan ham go‘zal. Mana, siz kelib guzarimizning go‘zalligi o‘n chandon oshdi.

*Go‘zalxon. Shoir bo‘lib keting-ye!. Rahmat!*⁶⁰

2. Direktiv strategiyalar (suhbatdoshning xatti-harakatini yo‘naltirish, minnatdorlikka javob qaytarishni kutish): *“Katta rahmat! Iltimos, menga yana maslahatingizni bersangiz!”*, *“Rahmat! Iltimos, bundan keyin ham shu kabi yordam bera olasizmi?”*, *“Yordamingiz uchun juda minnatdorman, agar imkoningiz bo‘lsa, yana maslahat bera olasizmi?”*

Masalan:

Eson Davlat begim qayg‘uga berilib, yig‘lab o‘tiradigan payt emasligini endi sezdi. Qosimbekni oyoqqa turg‘izdi-da:

– *Sadoqatingizdan minnatdormiz, – dedi. – Siz Bobur mirzo bilan birga otlaning! Biz ham endi chorbog‘dan qo‘rg‘onga ko‘chamiz*⁶¹.

⁶⁰ Фулом Х. Дил кўзгуси. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабит ва санъат нашриёти, 1972. — Б. 191.

⁶¹ Қодиров П. Юлдузли тунлар. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999. –Б.22.

3. Negativ strategiyalar (Suhbatdoshning shaxsiy hududini hurmat qilish, u bilan muloyim munosabatda bo‘lish): *“Bezovta qilganim uchun uzr, lekin yordamingiz uchun juda minnatdorman!”*, *“Men juda qadrlayman, lekin sizga qiyinchilik tug‘dirgan bo‘lsam, uzr so‘rayman”*, *“Rahmat, men sizga g‘amxo‘rlik qilganingiz uchun minnatdorman, lekin bundan tashvishlanib qolgan bo‘lsangiz, kechiring”*.

Masalan:

– *Xatarli yo‘llarda men o‘z jonimni avval xudoga, so‘ng sizga ishonib topshirmoqchimen. Bugundan boshlab siz mening qo‘rchiboshimsiz. Ichki beklarim qatorida bo‘lursiz.*

– *Inoyatingizdan minnatdormen, amirzodam!*

– *Hozir bu inoyatning sharafidan azobi ko‘proq. Yo‘lda charchagansiz. Borib dam oling. Ertadan safar tayyorligi boshlanur*⁶².

4. Nodirektiv strategiyalar (Minnatdorlikni mulohazali tarzda bildirish, bosim o‘tkazmasdan suhbatni davom ettirish): *“Sizga juda minnatdorman! Albatta, siz bundan ham yaxshi natijalarga erishasiz deb o‘ylayman”*, *“Rahmat! Sizning yordamingiz menga juda katta taassurot qoldirdi, bunday yordamsiz ham men uddalay olmasdim deb o‘ylayman”*, *“Menga ko‘rsatgan yordamingiz uchun katta rahmat, shunchaki, bunday insonlar kam uchraydi!”*

Masalan:

Bobomiz bilaklari bilan betlarini bekitadi.

– *Iyya-iyya! – deb chappa buriladi.*

Oqpodsholar ana shunda kalla ko‘tarib qaraydi. Yonbosh yotib qaraydi. Ko‘z qisib qaraydi. Erkakzot Oqpodsho kaftida tuprog‘ o‘ynaydi.

– *Tuprog‘ingni biz uchun muloyimlab qo‘yibsan, minnatdorchilik bildiramiz, – deydi*⁶³.

Bu strategiyalar minnatdorlik bildirishda suhbatdoshning ijtimoiy maqomi va muloqot kontekstiga qarab tanlanadi. Ular nutqiy madaniyatning muhim qismidir va insoniy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.


Bobning so‘nggi faslida minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy jihatlarini tahlil etiladi. Minnatdorchilik tilning kommunikativ funksiyalaridan biri bo‘lgani uchun uning to‘g‘ri ishlatilishi ijtimoiy madaniyatning namoyon bo‘lishini anglatadi. Har bir madaniyat o‘zining aniq qoidalari, namuna va iste‘mol shakllariga ega bo‘lib, minnatdorchilik bildirishda shu madaniy qoidalarning ta‘siri seziladi. Masalan, turli tillarda minnatdorchilik bildirishning shakllari, uning ishlatilish davrlari va ijtimoiy konteksti bir-biridan farq qiladi.

Sovg‘a berish va sovg‘a almashish odobi ko‘plab millatlarda mavjud bo‘lib, mazkur jarayon insonlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, o‘zaro hurmat va qadrlashni namoyon etish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu amal insonlarning bir-birlariga nisbatan ehtirom va e‘tiborini ifodalashga xizmat qiladi. Sovg‘a berish faqatgina muayyan bayram yoki rasmiy tadbirlar doirasida emas,

⁶² Ўша асар. –Б.164.

⁶³ Мурад Т. Отамдан қолган далалар. – Т.: “Зукко китобхон”, 2020. – Б. 4.

balki muayyan sababsiz, kundalik muloqot doirasida ham yuzaga chiqishi mumkin (Qarang: 4.1.- rasm).



4.1-rasm. O'zbek xalqida sovg'a taqdim etish jarayonida nutqiy birliklarning qo'llanilishi

O'zbek xalqida sovg'a taqdim etish jarayonida nutqiy birliklarning qo'llanilishi hududlar (12 ta hudud) bo'yicha turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, "*Arzimasam ham*" birikmasi o'zbeklar nutqida 60% dan ortiq holatlarda uchrab, sovg'aning kamtarona ekanligini ta'kidlash orqali suhbatdoshga nisbatan hurmat ifodalanadi va bu kamtarlikka asoslangan negativ strategiya sifatida talqin qilinishi mumkin. "*Bu sizga*" (10%) birikmasi esa direktiv (bald on record) strategiyasiga tegishli bo'lib, mulozamat konnotatsiyasining mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, "*Chin ko'ngildan, oling*" (8%) birligi muayyan mazmun yukiga ega bo'lib, "sovg'a ixtiyoriy ravishda taqdim etilgan", "sovg'a qandaydir minnatdorlik yoki qarzidorlik hissi bilan bog'liq emas" kabi ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, "*Buyursin, yaxshi kunlarda ishlating*" (5%) va "*Qulluq bo'lsin*" (3%) kabi birliklarda kamtarlik strategiyasi emas, balki suhbatdoshga yaxshi tilak bildirishga yo'naltirilgan pozitiv strategiya ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari, "*Arziysiz*" birikmasi asosan Qashqadaryo viloyatiga xos bo'lib, ushbu nutqiy etiket birligi O'zbekistonning boshqa hududlarida qo'llanilmaydi. Ayrim mintaqalarda bu birlik muomalasi "haddan tashqari samimiylik" yoki "manmansirashlik" sifatida qabul qilinishi mumkin. "*Yoqadi degan umiddaman*" (3%) birikmasi pozitiv strategiyani namoyon etib, sovg'a qabul qiluvchi bilan yaqin munosabatlarni ifoda etadi. Bu birlik asosan Toshkent va Farg'ona vodiysi hududlarida keng tarqalgan bo'lib, unda sovg'aning qadrlanishiga umid bildirish asosiy semantik xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Sovg'a qabul qilish jarayonida o'zbek tilida muayyan nutqiy birliklar ustuvorlik qiladi. Jumladan, "*Shart emas edi*" (32%) va "*Rahmat, ovora bo'libsiz*" (38%) kabi ifodalar eng ko'p qo'llaniladigan birliklar sifatida qayd etilgan bo'lib, ular ma'noga ko'ra "*Juda ovora bo'libsiz*" mazmuni bilan

uyg'unlik kasb etadi. Bu birliklar orqali tinglovchiga nisbatan hurmat ifodalanib, kamtarlik asosida shakllangan negativ strategiya namoyon qilinadi.

Sovg'a qabul qilishga doir mazkur birliklarning qo'llanishi O'zbekistonning turli viloyatlarida farqlanadi. Masalan, Toshkent, Andijon va Farg'ona viloyatlarida "*Ovora bo'libsiz*" birligi ko'proq ishlatiladi va u, asosan, tantanaviy munosabatlarda mulozamat belgisi sifatida qo'llaniladi. Buxoro va Xorazm viloyatlarida esa "*Nega bunday qildingiz?*" yoki "*Bu nimaga kerak edi?*" shaklidagi nutqiy birliklar uchrab, ular ham sovg'a beruvchiga nisbatan kamtarlik va hurmatni ifoda etadi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida "Shart emas edi" birligi ko'proq tarqalgan bo'lib, sovg'a qabul qiluvchining ehtiromini va sovg'ani haddan tashqari yuksak qabul qilmaslikka intilishini ko'rsatadi.

Navoiy va Jizzax viloyatlarida esa mazkur birliklar kamroq ishlatilib, ular o'rnida "*Rahmat, katta rahmat*" kabi umumiy minnatdorlik ifodalari afzal ko'riladi. Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida esa "Bu sizdan kutilmagan edi" yoki "*Hech keragi yo'q edi*" shaklidagi birliklar uchrab, ular kamtarlikni namoyon etuvchi nutqiy strategiya sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, o'zbek nutqiy etiketining o'ziga xos xususiyati sifatida "*Nega bunday qildingiz?*" va "Shart emas edi" ma'nosini aks ettiruvchi birikmalar ko'pgina chet el tillarida mavjud emasligi qayd etiladi. Bu esa ayrim holatlarda interkultur kommunikatsiyada pragmatik xatolarga olib kelishi mumkin. Chunki boshqa tillarda bunday ifodalar sovg'a beruvchi tomonidan rad etish yoki nomunosib munosabat sifatida talqin qilinishi ehtimoli mavjud.

XULOSA

1. Nutq janrlari ijtimoiy-madaniy faoliyatda muloqotning nisbatan barqaror shakllari bo'lib, ular kundalik, badiiy, ilmiy, huquqiy va boshqa sohalarda matn orqali amalga oshadigan kommunikativ birliklardir. Janrlar muayyan ijtimoiy tajriba va nutqiy vazifalar bilan belgilanadigan model bo'lib, ular orqali muallif niyati (intensiyasi) ifodalanadi.

2. Nutqiy aktlarda intensiya asosiy pragmatik komponent bo'lib, u so'zlovchining maqsadini amalga oshiradi. Ular amaliy (buyruq, iltimos), mental (fikrlash), replika hosil qiluvchi (taklif, minnatdorchilik) va diskurs yaratuvchi (ishontirish, tasvirlash) ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

3. Epistolyar muloqot yozma va og'zaki shaklda kechadigan ikki tomonlama nutqiy jarayon bo'lib, unda salomlashish, minnatdorchilik va xayrlashuv elementlari asosiy rol o'ynaydi. Epistolyar muloqotda adresant – maktubni yozuvchi, adresat esa – uni qabul qiluvchidir.

4. Nutqiy muloqot janrining adresatlilik, interaktivlik, ekspressivlik va situatsiyaviylik kabi xususiyatlari uni murakkab kommunikativ hodisa sifatida tavsiflaydi. O'zbek tilidagi fatik nutq aktlari – salomlashish, minnatdorchilik bildirish va xayrlashish – lingvokulturologik hamda kognopragmatik yondashuvlar asosida ijtimoiy-madaniy kontekstda o'rganilishi bu janrning kommunikativ birlik sifatidagi dolzarbligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, fatik nutq aktlarini tizimli tahlil qilish muloqotning madaniy-me'yoriy asoslarini chuqur anglashga imkon yaratadi

5. Nutqiy etiket formulalari odamlarning bir-birlari bilan munosabatlarini oʻrnatishdagi lisoniy verbal va noverbal vositalarning birgalikda ishlatilishidir. Bu nutqiy muloqotning eng birinchi oʻziga xosligidir. Biror nutqiy janrga xos iborani verbal qoʻllagan shaxs, albatta, shu verbal formulaga mos maʼnaviy-madaniy saviyaga – tegishli yosh, nasl-nasab, kiyim-bosh, ijtimoiy mavqe kabilarga ega boʻlishi zarur. Shu bilan birga, bu iborani maxsus jest (harakat)lar bilan hamkorlikda va maxsus tinglovchilarga nisbatangina qoʻllay oladi.

6. Oʻzbek tilidagi salomlashish nutqiy etiket formulalari lingvokulturologik va kognopragmatik yondashuvlar asosida tarkibiy-semantik jihatdan variativ shakllarda namoyon boʻladi. Ularning tanlanishi suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, oʻzaro munosabati hamda muloqot kontekstiga bogʻliq boʻlib, bu holat salomlashishni hurmat, odob va milliy qadriyatlarni ifodalovchi kommunikativ birlik sifatida belgilaydi. Ayniqsa, yoshlarning kattalarga salom berishi – anʼanaviy qadriyatlarning til vositasida aksidir. Salomlashish strategiyasi suhbatdoshlar oʻrtasidagi psixologik masofani tartibga solib, ularni yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Bu fatik aktga xos infuzion taktika orqali umumiy ijtimoiy kontakt yaratiladi. Salomlashuvga xos minnatdorchilik, tilak, iltifot, hol-ahvol soʻrash kabi elementlar oʻzaro hurmat va samimiylikni mustahkamlaydi.

7. Kognitiv yondashuv, insonning fikrlash va dunyoni tushunish mexanizmlariga, yaʼni ularning aqliy jarayonlariga asoslanadi. Semantik yondashuv esa, tildagi belgilangan maʼnolar, simvollar va ularning jamiyatdagi oʻrni bilan bogʻliq. Shu bilan birga, muloqotga kirishishning kognitiv-semantik yondashuvi muloqotchilarning salomlashish, iltimos qilish yoki boshqa ijtimoiy aloqalardagi tartibni qanday qabul qilishlari va tushunishlari bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Nutqiy etiket formulalari pragmatik maqsadiga koʻra salomlashishning turlari aniqlangan. Ular qoʻshimcha maʼnoga ega boʻlmagan salomlashish va minnatdorchilik hamda tilak semalarini oʻz ichiga olgan salomlashishga boʻlinadi.

8. Oʻzbek tilidagi xayrlashuv nutqiy akti muloqotni yakunlovchi urfiy-odatiy birlik sifatida kommunikantlar oʻrtasidagi doʻstona munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi. Uning asosiy strategik vazifasi – aloqa uzilishini yumshatish va keyingi uchrashuvga kommunikativ zamin tayyorlashdir. Bunda minnatdorchilik, yaxshilik tilash, iltifot va ajralishni istamaslik kabi kommunikativ harakatlar muhim oʻrin tutadi. Ushbu aktda xayrlashuv semasini oʻz ichiga oluvchi sodda shakllar bilan bir qatorda tilak elementlari bilan boyitilgan murakkab shakllar ham mavjud boʻlib, ular madaniy-pragmatik kontekstga mos tarzda qoʻllaniladi.

9. Xayrlashuv formulalari antropotsentrik va kognopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning semantik, grammatik va funksional xususiyatlari vaqt, makon, hodisa va nutq subʼyektlari bilan bogʻliq xronotopik struktura doirasida ifodalanadi. Ular milliy identifikasiyani aks ettirib, shaxsning madaniy odobi, kommunikativ tajribasi va davr ruhiyatini oʻzida mujassam etadi. Xayrlashuvning kundalik, uzoq muddatli, tasodifiy, rejalashtirilgan va abadiy shakllari til vositalari orqali madaniy qadriyatlar bilan uygʻun holda ifodalanadi.

10. Minnatdorchilik freymlari – bu odamlar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni ifodalovchi, qarzdorlik, yordam va hurmatni bildirishga yordam beradigan til birliklaridir. Ular ijtimoiy madaniyatga, axloq qoidalariga va tilning kommunikativ maqsadiga asoslanadi. Minnatdorchilik freymlari chuqur leksik va pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning turli kontekstlarida ishlatiladi. Ushbu tematik guruhda qo‘shimcha konnotativ ma’nomlarni o‘z ichiga olmaydigan hamda samimiy pahmat va tilak semalarini o‘z ichiga olgan minnatdorchilikni ifodalovchi formulalarni ajratishimiz mumkin.

11. Minnatdorchilik bildirish – ko‘p bosqichli dinamik jarayon bo‘lib, unda bir necha muhim bosqichlar mavjud. Ushbu jarayonning asosiy ishtirokchilari yaxshilik qiluvchi (ehtimol ko‘rsatuvchi) shaxs va yaxshilikni e’tirof etib, minnatdorchilik bildiruvchi shaxsdir. Ular o‘zaro muloqotga kirishib, kommunikativ aloqa orqali minnatdorchilikni izhor etadilar. Minnatdorchilik bildirilishi uchun muvaffaqiyatli muloqot vaziyatining shakllanishi bir nechta muhim bosqichlarni qamrab oladi: yaxshilik qilish uchun asos (motiv), yaxshilikning amalga oshishi, yaxshilikning e’tirof etilishi va baholanishi.

12. Minnatdorchilik nutqiy aktining shakllanishida adresantning maqomi (yakka shaxs, guruh yoki jamoa) muhim rol o‘ynaydi va bu holat minnatdorlik ifodasining mazmuniy va shakliy ko‘rinishiga ta’sir qiladi. Bu aktda qo‘llaniladigan strategiyalar esa muloqotning kontekstiga qarab farqlanadi: pozitiv (iliq munosabatni mustahkamlash), negativ (suhbatdoshning shaxsiy hududini hurmat qilish), direktiv (minnatdorlikka javob kutish) va nodirektiv (bosimsiz tarzda mulohazali ifoda) shakllarda namoyon bo‘ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАМРОЕВА НАФИСА НИЗОМИДДИНОВНА

**ФАТИКЧЕСКИЙ ДИСКУРС: СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЕ И
КОГНОПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ**
(на примере приветствий, выражения благодарности и прощаний)

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) филологических наук

Бухара – 2026

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.2.DSc/Fil983.

Докторская диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Бухарского государственного университета www.buxdu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Научный консультант:

Тоирова Гули Ибрагимовна

доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Мухамедова Саодат Худойбердиевна

доктор филологических наук, профессор

Хурсанов Нурислом Искандарович

доктор филологических наук (DSc), профессор

Каримов Суюн Амирович

доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится 6 мая 2026 года в 9:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 по присуждению научных степеней при Бухарском государственном университете, (Адрес: 200118, город Бухара, Ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под номером 862). (Адрес: 200118, город Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел: (0365) 221-29-14, факс (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Автореферат диссертации разослан 18 апреля 2026 года

(Протокол реестра № 9 от 17 апреля 2026 года).



Б.Э.Киличев

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н. (DSc), профессор

Ш.Г.Давронова

Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н. (DSc), профессор

М.К.Абузалова

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.ф.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (DSc) наук)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние десятилетия мировая лингвистика уделяет внимание изучению любой формы речевой деятельности, языковых явлений на основе коммуникативно-прагматического подхода. Такой подход, с одной стороны, позволяет учитывать особенности коммуникативной ситуации, социально-психологические отношения говорящего и слушающего. С другой стороны, проясняет смысл и функции высказываний речевых актов. Возрастающий интерес лингвистов к проблемам межличностной письменной речевой коммуникации требует углубленного изучения носителей языка, их лингвокультурных и когнопрагматических особенностей.

В мировой лингвистике усилилось движение к научно-теоретическому изучению места когнопрагмалингвистики среди языковых дисциплин, сложной взаимосвязи позиции участников речевого общения, их коммуникативных намерений, способов достижения поставленных в ходе общения целей и задач, отношения к тем или иным коммуникативным этапам с применяемыми обеими сторонами стратегиями и тактиками. В результате возникла необходимость акцентировать внимание на фатике и ее проявлениях. Приветствия, благодарности, поздравления и прощания, являющиеся разновидностью письменной фатической коммуникации, представляют собой отдельный коммуникативный уровень речевого этикета. Необходимость углубленного изучения этих проблем объясняется антропоцентричностью направлений языковых исследований и необходимостью применения новых комплексных подходов к проблемам фатической коммуникации.

Антропоцентрический подход, утвердившийся в лингвистическом центре за годы независимости, позволил сформировать новые научные дисциплины – когнолингвистику, прагмалингвистику, психоллингвистику, в том числе теорию письменной фатической коммуникации. В этой связи «...задача развития научно-исследовательской и инновационной деятельности, всесторонней поддержки творческих идей и разработок»¹ требует проведения исследований по всем направлениям языкознания и проведения разнообразных практических экспериментов. Это, в свою очередь, обеспечивает достижение больших достижений в науке через теоретический и практический анализ языка, изучение языковых проблем на основе мировоззрения, мышления и языковых знаний его носителей.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, изложенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года № ПФ-4797 «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Манба: [www.http://prezident.uz/uz/lists/view/137](http://prezident.uz/uz/lists/view/137)

2022-2026 годы», Постановлении от 17 февраля 2017 года № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию организации, управления и финансирования деятельности Академии наук, научно-исследовательских работ», Законе Республики Узбекистан «О государственном языке», принятом в новой редакции 21 декабря 1995 года, и других нормативно-правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий и инноваций республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Научные исследования, направленные на изучение теоретических и практических аспектов фатической коммуникации на основе когнопрагматического, лингвокультурологического и социопрагматического подходов, активно ведутся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира. В частности, активно ведутся в таких престижных научных центрах, как Кембриджский университет, Оксфордский университет, Лондонский Метрополитенский университет (Великобритания), Торонтский университет (Канада), Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургский университет (Россия), Казанский федеральный университет Республики Татарстан (Россия), Казахский национальный университет (Казахстан), Бухарский государственный университет (Узбекистан).

